

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

A K A D E M I Y A

JINOYAT HUQUQINING
UMUMIY QISMIDAN
AMALIY MASALALAR

O‘quv qo‘llanma

Toshkent – 2015

M a s ' u l m u h a r r i r
yuridik fanlar doktori, professor Q. R. Abdurasulova

T u z u v c h i - m u a l l i f l a r :

yuridik fanlar nomzodi, dotsentlar – A. A. Otajonov, B. U. Tadjixanov;
yuridik fanlar nomzodlari – M. M. Qalandarov, G'. K. Botirov;
D. Y. Payziyev, T. R. Kuchkarov, A. A. Rasulev, M. M. Xaydarov, Q. A. Ro'ziyev

T a q r i z c h i l a r :

Toshkent davlat yuridik universiteti jinoyat huquqi va kriminologiya kafedrası
professori yuridik fanlar doktori, professor **R. A. Zufarov;**

Toshkent shahar IIBB Tergov boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
yuridik fanlar nomzodi, dotsent **A. Sh. Umarxonov**

J – 72 Jinoyat huquqining umumiy qismidan amaliy masalalar:
O'quv qo'llanma / Tuzuvchi-mualliflar: A. A. Otajonov,
B. U. Tadjixanov, M. M. Qalandarov va boshq. – T.: O'zbekiston
Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. – 46 b.

Ushbu amaliy masalalar to'plamida Jinoyat kodeksi Umumiy qismida nazarda tutilgan jinoyat qonunining vaqt bo'yicha amal qilishi, jinoiy javobgarlik asoslari, jinoiy javobgarlikka tortilishi lozim bo'lgan shaxslar, ayb, jinoyatda ishtirokchilik, bir qancha jinoyatlar sodir etish, «jazo» tushunchasi va uni tayinlash qoidalari, javobgarlikdan va jazodan ozod qilish, voyaga yetmaganlar javobgarligining xususiyatlari hamda tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llashni amaliy jihatdan mustahkamlashga, shuningdek jinoyat qonuni bilan tartibga solinadigan munosabatlarda uchraydigan muammoli vaziyatlar yechimiga oid masalalar berilgan.

Yuridik ta'lim muassasalarining tinglovchi, kursant va talabalariga mo'ljallangan.

BBK 67.99 (5U) 8ya73

SO‘ZBOSHI

Mamlakatimizda jinoyatchilikka qarshi kurashni amalga oshiruvchi jinoyat qonunchiligini takomillashtirish, unga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish orqali qonun normalarini to‘g‘ri qo‘llash bilan jazoning muqarrarligini ta‘minlash, shuningdek odil sudlovni amalga oshirishda jinoyat qonuni prinsiplariga qat‘iy amal qilish Jinoyat huquqi fanining asosiy vazifalaridan biridir.

Mazkur o‘quv qo‘llanmada Jinoyat huquqi Umumiy qismini tashkil etuvchi «jinoyat» tushunchasi, jinoyat qonunining vaqt, hudud va shaxslar doirasida amal qilish chegarasi va prinsiplari, jinoiy javobgarlik, jinoyat tarkibi, tamom bo‘lmagan jinoyatlar, jinoyatda ishtirokchilik, bir qancha jinoyatlar, qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar, «jazo» tushunchasi, turlari va jazolarni tayinlash qoidalari, javobgarlikdan va jazodan ozod qilish asoslarini yoritib beruvchi amaliy masalalar o‘rin olgan bo‘lib, unda O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorlari mazmuni ham qamrab olingan.

Amaliy masalalar to‘plami fundamental bilim olishga mo‘ljallangan darslik bo‘lmasada, tinglovchilarning qisqa muddatlarda Jinoyat huquqi Umumiy qism fanini o‘rganish jarayonida olgan bilimlarini tizimlashtirishlari va aniqlashtirishlari, asosiy tushunchalar, ularning belgilari va xususiyatlariga o‘z e‘tiborlarini jamlashlari, nazariy va amaliy xususiyatga ega bo‘lgan savollarga javoblarni shakllantirib olishlari mumkin.

O‘quv qo‘llanma yuridik ta‘lim muassasalarining tinglovchi, kursant va talabalariga mo‘ljallangan.

Birinchi bo'lim. UMUMIY QOIDALAR

I bob. Jinoyat kodeksining vazifalari va prinsiplari

1-masala. Toshkent shahar jinoyat ishlari bo'yicha sudi tomonidan fuqaro A. turmush o'rtog'i B.ni qasddan o'ldirganlikda aybdor deb topilib, Jinoyat kodeksining 97-moddasi 1-qismi bilan 10 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlandi. Fuqaro A. jazoni ijro etib chiqqanidan so'ng, kunlarning birida ishdan qaytayotib sobiq turmush o'rtog'i B. notanish erkak bilan ketayotganining guvohi bo'ldi. A. avvaliga B.ni tirik ekanligiga ishonmadi va uni kuzata boshladi. A.ning kuzatuvlari natijasida turmush o'rtog'i B. tirik ekanligiga ishonch hosil qildi va uning uchun 10 yil ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etib chiqqanligi uchun uni o'ldirdi.

Mazkur holat yuzasidan jinoyat ishi qo'zg'atilib, dastlabki tergov olib borildi va sud jarayonida A.ning himoyachisi sudyaga himoyasi ostidagi fuqaro A. muqaddam turmush o'rtog'i B.ni o'ldirganlikda ayblanib, javobgarlikka tortilganligini Jinoyat kodeksining 8-moddasida (Odillik prinsipi) hech kim aynan bitta jinoyat uchun ikki marotaba javobgarlikka tortilishi mumkin emasligi belgilab qo'yilganligini aytib, suddan A.ga nisbatan qo'zg'atilgan jinoyat ishini tugatishni so'radi.

– *Ushbu holatda himoyachining talablari to'g'rimi?*

2-masala. Fuqaro I. 2014-yilning 22-noyabr kuni fuqaro G.ga nisbatan JK 109-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etgan. I.ga nisbatan qo'zg'atilgan jinoyat ishi yuzasidan dastlabki tergov harakatlari olib borilishi davomida G. bilan yarashib, aybini bo'yniga olish to'g'risida arz qilib, amalda pushaymon bo'lib, yetkazilgan zararni to'liq qoplaganligi sababli tergovchi S. fuqaro I.ga nisbatan qo'zg'atilgan jinoyat ishini yarashilganligi munosabati bilan tugatish to'g'risida qaror chiqardi.

– *Mazkur holatda tergovchi S. Jinoyat kodeksining 10-moddasida nazarda tutilgan javobgarlikning muqarrarligi prinsipiga rioya qilganmi?*

II bob. Kodeksning amal qilish doirasi

1-masala. Turkmaniston Respublikasining fuqarosi A. «Andijon – Moskva» yo'nalishi bo'yicha poyezdda kelayotgan O'zbekiston Respublikasining fuqarosi Z.ga Turkmaniston Respublikasining hududi hisoblanmagan joyda janjal oqibatida qasddan hayotidan mahrum qildi. Ushbu

poyezd «O‘zbekiston temir yo‘llari» davlat-aksiyadorlik kompaniyasiga tegishli bo‘lgan.

– *Sodir etilgan jinoyat qaysi davlat hududida sodir etilgan deb topiladi?*

2-masala. O‘zbekiston fuqarosi V. Toshkent shahrida AQSH milliy valutasini «5 ming AQSH dollari»ni qalbakilashtirib Qozog‘iston Respublikasi Olmaota shahrida muomalaga kiritayotganda shu hudud huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari tomonidan qo‘lga olindi.

– *Fuqaro V. qaysi davlat qonunchiligiga asosan javobgarlikka tortiladi?*

3-masala. Afg‘oniston Respublikasi fuqarosi S. 2014-yilning 2-sentabr kuni Turkmaniston Respublikasi, 2014-yilning 5-noyabr kuni Tojikiston Respublikasi, 2014-yilning 8-dekabr kuni Qozog‘iston Respublikasida «terrorizm» jinoyatini sodir etib, O‘zbekiston Respublikasi Toshkent shahrida qo‘lga olindi.

– *Fuqaro S. sodir etgan jinoyati uchun qaysi davlatning jinoyat qonunchiligi bo‘yicha javobgarlikka tortiladi?*

4-masala. Fuqaro B. va V.larning otasi vafot etganligi sababli, B. barcha mol-mulkka egalik qilish maqsadida ukasi V.ga Qozog‘iston Respublikasiga borishini bilib unga sekin ta’sir etuvchi zaharli moddani ovqatiga aralashtirib beradi. V. Qozog‘istonga borganida vafot etadi.

– *Fuqaro B. qaysi davlat qonunchiligiga asosan javobgarlikka tortiladi?*

5-masala. O‘zbekistonga sayohat uchun kelgan AQSH fuqarosi B. Samarqand viloyati Registon maydonida Angliya fuqarosi G. bilan o‘zaro janjal oqibatida uning badaniga og‘ir tan jarohatini yetkazdi.

– *AQSH fuqarosi B.ning jinoiy javobgarlik masalasini hal qiling.*

6-masala. O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi A. turmush o‘rtog‘i M. bilan Pokiston Respublikasiga vaqtincha ishlash uchun bordi. Pokiston Respublikasida muqim 3 yil yashab, Pokiston Respublikasida ikki yoki undan ortiq ayol bilan umumiy ro‘zg‘or asosida yashashga ruxsat berilganligi sababli, turmush o‘rtog‘idan yashirinchalik ikkita ayol bilan nikohdan o‘tib umumiy ro‘zg‘or asosida yashab kelgan. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari A. va M.lar O‘zbekiston Respublikasiga qaytgach, fuqaro A.ning turmush o‘rtog‘i M. bu holat bo‘yicha hududiy IIBga ariza bilan murojaat qildi.

– *Ushbu holatda fuqaro A. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi bo‘yicha javobgarlikka tortiladimi?*

7-masala. 2007-yilning 15-mart kuni fuqaro S. rashk oqibatida homilador turmush o'rtog'i G.ni bolta bilan tanasining turli joylariga zarar yetkazib uni o'ldirdi. Fuqaro S. Jinoyatni sodir etish vaqtida qo'shnisi P. ko'rib qolganligini anglab, uni ham o'ldirdi. Sodir etilgan qilmish yuzasidan fuqaro S.ga nisbatan JK 97-moddasi 2-qismi «a» va «o» bndlari bilan jinoyat ishi qo'zg'atildi.

2007-yilning 15-dekabr kuni qabul qilingan va 2008-yilning 1-yanvaridan kuchga kirgan qonun asosida «o'lim jazosi» bekor qilinib, «umrbod ozodlikdan mahrum qilish» jazosi jazo tizimiga kiritilgan edi. Shu bois sud jazo tayinlash vaqtida fuqaro S.ning sodir etgan qilmishining ijtimoiy xavflilik darajasiga ko'ra o'ta shafqatsizlik sodir etganligini inobatga olib, unga 2008-yilning 10-yanvar kuni unga o'lim jazosini tayinladi.

– *Sudning fuqaro S. ga nisbatan chiqargan hukmi qonuniymi?*

8-masala. O'zbekiston Respublikasi fuqarosi L. London shahrida ko'p miqdorda firibgarlik jinoyatini sodir etib, AQSH davlatiga o'tib ketdi. AQSH davlatida ham firibgarlik jinoyatini sodir etib O'zbekistonga qaytib keldi.

– *Fuqaro L. qaysi davlat qonunchiligi bo'yicha javobgarlikka tortiladi?*

9-masala. Afg'oniston Respublikasi fuqarosi D. o'z hududida ko'p miqdorda «opiy» narkotik moddasini o'tkazish maqsadida tayyorlab, Qozog'iston Respublikasi hududiga ozginadan ko'proq miqdorda, Turkmaniston Respublikasi hududiga ancha miqdorda, Tojikiston Respublikasiga esa ko'p miqdorda o'tkazdi. Natijada narkotik moddalarni o'tkazish orqali katta miqdordagi boylikka ega bo'lgan D. O'zbekiston Respublikasi hududida qo'lga olindi.

– *Fuqaro D. qaysi davlat jinoyat qonunchiligi bo'yicha javobgarlikka tortiladi?*

10-masala. 2014-yil 25-mart kuni Jinoyat kodeksining 177-moddasi bilan jinoyat ishi qo'zg'atilgan fuqaro N.ning jinoyatini yengillashtirish maqsadida tergovchi A. undan 1 mln. so'm pul talab qildi. Fuqaro N. 2014-yilning 16-iyul kuni tergovchi A.ga aytilgan pulni pora tariqasida berdi. So'ngra aybidan pushaymon bo'lgan fuqaro N. tuman prokuraturasiga tergovchi A.ning ustidan arz qildi. Sud fuqaro N.ga nisbatan Jinoyat kodeksining 211-moddasida nazarda tutilgan qilmishni sodir etganligini inobatga olib, 4 yil 6 oy ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinladi.

– *Ushbu holatda fuqaro N.ga nisbatan chiqarilgan sudning hukmi to'g'rimi?*

Ikkinchi bo'lim. JAVOBGARLIK ASOSLARI

III bob. Jinoyat

1-masala. O'zbekistonga kirib kelayotgan Afg'oniston fuqarosi S. yo'lovchi bojxona deklaratsiyasini to'ldirar ekan, bojxona inspektoriga yonida hech qanday taqiqlangan va yashirilgan buyumlar yo'qligini ma'lum qildi. Ammo tekshiruv natijasida fuqaro S. ning egnidagi palto va shimi tugmalari o'rniga umumiy qiymati 16 mln. so'mga teng qadimiy mis tangalar qadalgani aniqlandi. Fuqaro S. surishtiruv davomida ushbu qadimiy mis tangalarni o'zi istiqomat qilayotgan uyi xarobalari orasidan topib olganini ma'lum qildi.

– *«Jinoyat» tushunchasi va tasnifiga doir normalar tahlili asosida holatga huquqiy baho bering.*

2-masala. Fuqaro A.ning uyida elektr simlarining qisqa tutashuvi natijasida yong'in chiqib uy jihozlari yonib zararlangan. Yong'in o'chirish vaqtida uy egasining 1 yoshli qizi kuyishi natijasida tan jarohati olib shifoxonaga yotqizilgan.

– *Mazkur holatga huquqiy baho bering.*

3-masala. Tuzalmaydigan xastalik bilan to'shakka «mixlanib» qolgan M. o'zini o'zi o'ldirmoqchi bo'ldi, ammo boshqa kishining yordamisiz bu ishni qila olmadi. Shu bois u bu haqda do'sti T.dan iltimos qildi. U esa rozi bo'ldi.

T. elektr simidan sirtmoq yasab, M. yotgan krovatning orqasiga bog'ladi hamda ushbu sirtmoqni do'stining bo'yniga kiyishiga yordam berdi va xayrlashib ketdi. Natijada M. o'zini osib o'ldirdi. Bu holatdan xabar topgan jabrlanuvchining xotini A. esa erining o'lishiga yordam berganligi uchun T.ni jinoiy javobgarlikka tortishni so'rab IIBga murojaat qildi.

– *T.ning qilmishiga huquqiy baho bering.*

4-masala. «Istanbul – Toshkent» reysi bo'yicha uchib kelgan fuqaro M.ning changyutgichidan 1,4 kilogramm og'irlikdagi kumushdan tayyorlangan zargarlik buyumlari topildi. Shu reysdagi fuqaro D.dan esa qiymati 2 mln. so'mdan ziyod bo'lgan 159 gramm og'irlikdagi tilla va kumush taqinchoqlar chiqdi. Fuqaro M. va D.larning belgilangan me'yordan ortiqcha bo'lgan buyumlarini T-6 shakldagi bojxona bayonnomasida qayd etmasdan olib o'tishga uringan.

– *JKning «jinoyat» tushunchasi va tasnifiga doir normalar tahlili asosida holatga huquqiy baho bering.*

5-masala. Bojxona xodimlari Turkiyadan qaytayotgan yo'lovchi fuqaro M.ning yonidan 10 mln. so'mdan ortiq 210 gramm hamda fuqaro F.dan 16 mln. so'mlik 237 gramm tilla taqinchoqlar bojxona bayonnoma-sida qayd etmasdan va bojxona xodimining og'zaki so'rog'i paytida ma'lum qilmasdan yashirin ravishda olib o'tishga uringanligini fosh qildi.

– *Ushbu holatga huquqiy baho bering.*

6-masala. Rossiya davlatidan «Moskva – Samarqand» yo'nalishida uchish uchun aeroportga kelgan O'zbekiston fuqarosi A. ob-havo noqulay-ligi sababli, kutish zalida ko'p miqdordagi spirtli ichimlik iste'mol qilib, uchish vaqtida xodimlarning samolyotda ichish taqiqlangani haqidagi gap-lariga ko'nmasdan, ularga bo'ysunishdan bo'yin tovlab, uchuvchilar xona-siga kirishga urindi. A. ularning gapiga quloq solmay, baqir-chaqir qildi va boshqa yo'lovchilarga xalaqit berdi.

– *A.ning harakatlariga huquqiy baho bering.*

7-masala. Fuqarolar O'. va A. o'z uylarida «Kazino» ochgan. Ular har kuni bu yerga o'nlab kishilarni yig'ib, yarim kechagacha qimorbozlik qil-gan. O'yinga naqd pul tikilgan. O'yin vaqtida ko'p miqdordagi spirtli ichimliklarni iste'mol qilgan.

– *JKning tegishli normalari asosida holatga huquqiy baho bering.*

8-masala. Sobiq sirk artisti A.ning o'rgatilgan iti xonadonlarga kirib, ichida puli bo'lgan hamyonlarni topib, xo'jayiniga olib kelib berar edi.

– *A.ning harakatlarida jinoyat alomatlari mavjudmi?*

9-masala. Fuqaro A. o'zining otidan foydalanib, Turkmaniston Res-publikasi chegarasi hududida qarovsiz yurgan otlarni haydab kelish vaqti-da O'zbekiston Respublikasi chegara xodimlari tomonidan ushlendi.

– *Mazkur holatga huquqiy baho bering.*

10-masala. O'tkazilgan tezkor tadbirda F.ning yashash xonadoni ko'z-dan kechirilganda, u o'zining xonadonida elektr tarmoqlari korxonasiga 19 mln. 627 ming so'mlik zarar yetkazib, yashirin sex tashkil qilgani, paxta xomashyosini qayta ishlash uskunasi o'rnatganligi, noqonuniy ravishda tola ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanib kelganligi ma'lum bo'ldi va undan 9 turdagi jami 9 mln. 126 ming so'mlik tovar-moddiy boyliklar ashyoviy dalil sifatida olib qo'yildi.

Bundan tashqari, F. qayta ishlangan paxta tolasini o'tkazish maqsadida rasmiy hujjatlarni qalbakilashtirib, o'zining jinoiy sheriklariga taqdim qilib, paxta tolasini takroran o'tkazib kelganligi ham aniqlandi.

– *Mazkur holatga huquqiy baho bering.*

11-masala. Fuqaro A. bobosidan qolgan «Ijevsk» ov qurolini tegishli ruxsatnomasiz uyda saqlagan, lekin mazkur quroldan biror marta foydalanmaganligi holatida IIB xodimlari tomonidan ashyoviy dalil sifatida olib qo'yildi.

– *Fuqaro A.ning harakatlariga huquqiy baho bering.*

12-masala. Fuqaro A. jamoat joyida xo'roz urishtirishni tashkil qilish maqsadida 500 kishiga mo'ljallangan joy tayyorlagan va umumiy sovrin jamg'armasidan 10 foiz miqdorida ulush olgan hamda tomoshabinlardan tomosha pulini yiqqan.

– *Fuqaro A.ning harakatlariga huquqiy baho bering.*

IV bob. Javobgarlikka tortilishi lozim bo'lgan shaxslar

1-masala. Moskva shahri ko'chasida 25 yoshli O'zbekiston fuqarosi A. tanishi bo'lgan S. bilan o'zaro janjallashib, uning yuziga bir marta musht tushirdi. Natijada S. boshi va tanasi bilan beton yo'lakka yiqildi va kasalxonada vafot etdi.

– *Ushbu holatga huquqiy baho bering.*

2-masala. Spirtli ichimlikka ruju qo'ygan fuqaro R. 20 yoshli o'g'li M.ga spirtli ichimlik ichmaslik haqida bir necha marta tanbeh berdi. Bundan jahli chiqqan M. mast holda jahl ustida otasiga tajovuz qilib o'ldirib qo'ydi.

– *Fuqaro R.ning harakatlariga huquqiy baho bering.*

3-masala. 32 yoshli O'zbekiston fuqarosi Z. sheriklari bilan birga 2012-yil 29-sentabr kuni Leningrad viloyatida ishlayotgan hamyurtlarining yashash joyiga bostirib kirib, ularga pichoq va bolta bilan tan jarohati yetkazgan va o'ldirgan. Shunday yo'l bilan Z. to'rt kishini hayotidan mahrum qildi. Qotillikka hamyurtlarining vositachiligidagi qurilish ishlarini amalga oshirishdan bo'yin tovlagani sabab bo'lgan.

– *Javobgarlikka tortilishi lozim bo'lgan shaxslarga doir normalar tahlili asosida holatga huquqiy baho bering.*

4-masala. Fuqaro V. bir necha bor sudlanganiga qaramay, mast holatda uyiga kelib, o'zi bilan nikohsiz yashayotgan fuqaro N. bilan uyida puli yo'qolganini vaj qilib janjallashib, N.ni vahshiylarcha do'pposlashga tushdi. Birozdan so'ng polda qonga belanib yotgan xotinining tomog'idan bo'g'ib o'ldirdi va hech narsa bo'lmagandek N.ning yonida uxlab qoldi.

– *Fuqaro V.ning harakatlariga huquqiy baho bering.*

5-masala. Toshkent shahrida yashovchi A. va S.lar niqob kiyib, qo'lga o'yinchoq to'pponchani olib, D. ning hovlisiga bostirib kirgan.

Bosqinchilar xonadon egasining qo'l-oyog'ini bog'lab uni kaltaklashgan va uydan katta miqdordagi mulkni o'g'irlab ketgan.

– *Ushbu holatga huquqiy baho bering.*

6-masala. Fuqaro S. F.ning yo'lini to'sib, zo'ravonlik bilan 10 ming so'm pulini olib qo'ygan. S.ning qilmishiga befarq qarab tura olmagan F.ning jiyani V. yordamga kelgan. Natijada S. boshidan jarohat olib hushidan ketgan va shifoxonada o'ziga kela olmay vafot etgan.

– *Javobgarlikka tortilishi lozim bo'lgan shaxslarga doir normalar asosida holatga huquqiy baho bering.*

7-masala. Fuqaro B. va R.lar J. ismli shaxs bilan tanishib qolgan. J. yangi tanishlarini o'z uyiga mehmondorchilikka taklif etgan. Kech bo'lishiga qaramay, B. va R. yangi ulfatining taklifiga rozi bo'lib, J.ning xonadoniga borgan. U yerda ularni S. va T. ismli yigitlar kutib olgan. Spirtli ichimliklar ta'sirida mehmonlar va mezbonlar o'rtasida kelishmovchilik yuzaga kelgan. Natijada mast bo'lib qolgan B. S. va T.ga pichoq bilan tashlangan va ularga og'ir tan jarohati yetkazgan. Xonadon sohibi J. og'aynilariga tashlanayotgan B.ning qo'lidan pichoqni tortib olmoqchi bo'lgan. Ammo B. unga bo'ysunmay, xonadon sohibiga tashlangan hamda uning ko'krak, qorin va bel sohalariga bir necha bor pichoq urib, hayotiga zomin bo'lgan. B.ga kuchi yetmasligini tushungan S. ko'chaga chiqib ketgan va ko'p qon yo'qotishi oqibatida hushini yo'qotib yiqilgan. O'ziga kelganida esa tez yordam va IIB xodimlari yonida turganini ko'rgan.

– *Mazkur holatga huquqiy baho bering.*

8-masala. Bojxona xodimlari tomonidan chet el fuqarosi shifokor N. tarkibida narkotik modda bo'lgan «Delorazepam» deb nomlanuvchi dorini olib kirishda ayblanmoqda.

Shifokor N. parvozdan qo‘rqqani uchun ushbu doridan iste‘mol qilishini, bojxona deklaratsiyasini to‘ldirish vaqtida til bilmaganligi tufayli «giyohvandlik vositalari» katakchasiga qayd etmaganligini bildirdi.

– *Holat bo‘yicha ushbu shaxslarning harakatlariga huquqiy baho bering.*

9-masala. 15 yoshli S. G.ga «opaginam, tez kunlarda plastik kartochkangizdagi pulni naqd pulga almashtirib beraman», – deya, uning 4 mln. 954 ming so‘m mablag‘i bo‘lgan plastik kartochkasini olib, g‘oyib bo‘lgan.

– *Mazkur holatga huquqiy baho bering.*

V bob. Ayb

1-masala. Bir guruh talabalar dam olgani daryo bo‘yida joylashgan o‘rmonga borishdi. Ular bilan birga borgan D. ismli shaxs tanishi S. ismli talaba qiz bilan sayohat qilishib o‘rmon ichkarisiga kirib ketishdi. D. atrofda odam yo‘qligidan foydalanib S.ga jinsiy aloqa qilishni taklif qildi. S. unga javoban, hazilni qo‘ysangchi, yur orqaga qaytamiz deb javob bergach, D. uni qo‘rqitish istagida yonida bo‘lgan to‘pponcha bilan 5 metr-lar uzoqlikda uni mo‘ljallasdan otganda, o‘q S.ning yelka qismiga tegib, og‘ir tan jarohati oldi.

– *D.ning harakatlarida aybning qanday shakli mavjud?*

2-masala. Tibbiyot institutini bitirgan A. ismli ayol shahar klinikasiga akusher-ginekolog bo‘lib ishga kirdi. Bir oydan so‘ng uning navbatchilik vaqtida farzand ko‘rgan V.dan qon keta boshladi. Shifokor A. unga «Atonik qon ketish» tashxisini qo‘yib, qonni to‘xtatish choralarini ko‘rdi. Biroq ko‘rsatilgan muolajaga qaramasdan, V. ko‘p qon yo‘qotganligi bois hayotdan ko‘z yumdi.

Sud-tibbiyot ekspertizasi V.ni tekshirib, unga shifokor A. tomonidan noto‘g‘ri tashxis qo‘yilganligi, agar to‘g‘ri tashxis qo‘yilganda V.ning hayotini saqlab qolish mumkin degan xulosaga keldi.

– *Shifokor A.ning harakatlarida ayb mavjudmi? Agar ayb mavjud bo‘lsa, aybning qanday shakli bo‘ladi?*

3-masala. A. va L. ismli shaxslar kechki soat 17:30 larda ovdan qaytayotganlarida A. sherigi L.ga qarshilaridagi butazor ichida yovvoyi ayiq borligini, otmasa qo‘qqisdan hujum qilib qolishi mumkin deya, butazor

tomonga o'q uzdi. Natijada butazor ortida bo'lgan H. ismli ovchini o'ldirib qo'ydi.

– *A va L.larning harakatlarida aybning qanday shakli mavjud?*

4-masala. 3-kurs kollej o'quvchilari A. va R.lar birga o'qiydigan V.ning ta'zirini berib qo'yish maqsadida, uning suza olmasligini bila turib, anhorning chuqur joyiga itarib yuborishadi. Yaxshi suzishni bilmagan V. ulardan yordam so'rab, baqira boshlaydi. Ular unga parvo qilmay, biroz qiynalsin, keyin yordam beramiz deb, V. ga yordam bermaydi. Natijada V. ko'p suv yutishi natijasida suvga cho'kib, vafot etadi. A. va R.lar bo'lgan voqeani yaqindagi IIBga borib aytishdi.

– *A. va R. larning harakatlariga huquqiy baho bering.*

5-masala. Fuqaro T. fuqaro B.dan o'lgan singlisining qasдини olish maqsadida uni mehmonga chaqirib, ovqatiga zaharli modda qo'shib yuboradi, natijada B. o'tkir ichak zaharlanishi oqibatida og'ir ahvolda kasalxonaga yotqizilib, tezkor tibbiy yordam ko'rsatilishi natijasida hayoti saqlab qolindi.

– *Fuqaro T.ning harakatida aybning qanday shakli mavjud?*

6-masala. Fuqaro B.ga qo'shni bo'lgan fuqaro M. o'zaro janjal oqibatida B.ning ko'krak qismiga qattiq jism bilan urib, og'ir tan jarohati yetkazadi. Fuqaro B. bir hafta tuman kasalxonasida yotib, o'pka-nafas yo'lining qattiq zarb olishi natijasida vafot etadi.

– *Ushbu holatda aybning qanday shakli mavjud?*

7-masala. O'zaro janjal oqibatida A. uyida turgan ov miltig'i bilan S.dan o'ch olish maqsadida, unga o'q uzadi, lekin o'q S.ning farzandi L.ga tegib, og'ir tan jarohati oldi.

– *A.ning harakatlarida aybning qanday shakli mavjud?*

8-masala. Fuqaro V. o'ch olish maqsadida 25-sonli avtokorxonada ishlovchi fuqaro F.ga tegishli «Mersedes-bens» avtobusining tormoz shlangasini kesib qo'yishi natijasida F. qarshisidan kelayotgan «Nexia» yengil avtomashinasiga to'qnashib uning haydovchisi R.ga nisbatan og'ir tan jarohati yetkazdi.

– *Fuqaro V.ning harakatlarida aybning qanday shakli mavjud?*

9-masala. «To‘xtasin ota» fermer xo‘jaligiga tegishli bug‘doy ekinlarini fuqaro L.ning 10 ga yaqin qo‘ylari tomonidan payhon qilinayotganligini ko‘rgan shu fermer ishchisi S. ushbu qo‘ylarni zaharlab o‘ldiradi.

– *S.ning harakatlarida aybning qanday shakli mavjud?*

10-masala. Akusher-ginekolog V. uyida fuqaro G.ni noqonuniy abort qiladi. Natijada homila katta bo‘lganligi bois, G. ko‘p qon yo‘qotadi. V. faqat abort qilishga kelishganligini aytib, G.ni uyiga jo‘natib yuboradi. G. esa qon to‘xtamasligi natijasida uyiga yetmasdan, yo‘lda vafot etadi.

– *Akusher-ginekolog V.ning harakatlariga huquqiy baho bering.*

VI bob. Tamom bo‘lmagan jinoyat

1-masala. Fuqaro A. o‘zining kursdoshi S.ning erkiga xilof ravishda u bilan nikohda bo‘lish uchun o‘g‘irlashga qaror qildi. Ertasi kuni A. S.ni o‘g‘irlash rejasini tuzish maqsadida uni kun davomida kuzatib yurdi. Kechga yaqin S. kimdir uni ta‘qib qilib yurganligini sezib qoldi va darhol IIBga bu haqda xabar qildi. O‘tkazilgan tezkor tadbir natijasida fuqaro A. ushlendi.

– *Mazkur holatda qasddan jinoyat sodir etish bosqichini aniqlang va fuqaro A.ning qilmishiga huquqiy baho bering.*

2-masala. Fuqaro I. ishdan qaytayotib mahallasidagi spirtli ichimliklar do‘koni oldida qo‘shnilari V. va R.lar mast holda suhbat qurib turishganligining guvohi bo‘ldi va ularning suhbatiga qo‘shildi. Suhbat davomida qo‘shnisi V. shu mahalladagi 22-uyda istiqomat qiluvchi S. uyidagi temir qutida qonunga xilof ravishda o‘qotar qurol saqlayotganligini aytib qoldi. Shunda I. o‘zi avvaldan adovatda yurgan tanishi G.ni o‘ldirish maqsadida ushbu qurolni o‘g‘irlashga qaror qildi. Ushbu jinoiy niyatini amalga oshirish maqsadida u tunda qo‘shnisi S.ning uyiga tomorqa orqali kirib, temir sandiqni kalit tanlash yo‘li bilan ochishga bir necha bor uringanligiga qaramasdan uni ocha olmadi va temir sandiqni o‘zi bilan olib ketdi. Shundan so‘ng I. uyiga borib temir sandiq qulfini buzish orqali ochib, uning ichi bo‘shligiga guvoh bo‘ldi.

– *Mazkur holatda qasddan jinoyat sodir etish bosqichini aniqlang va fuqaro I.ning qilmishiga huquqiy baho bering.*

3-masala. Guvoh V. dastlabki tergov davrida JKning 118-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etishda gumon qilinayotgan

U.ga nisbatan yolg'on guvohlik berdi. Mazkur jinoyat ishi sudda ko'rilgunga qadar V.ning fikri o'zgarib, sud muhokamasida ish yuzasidan haqiqatni aytib ko'rsatma berdi. Ma'lum bo'lishicha, V. jinoiy javobgarlikdan qo'rqqanligi uchun sud muhokamasida dastlabki tergovda bergan ko'rsatmasini o'zgartirgan va haqiqatni bayon qilgan.

– *Fuqaro V.ning qilmishiga huquqiy baho bering.*

4-masala. Fuqaro A. turmush o'rtog'i G.ning homilador ekanligini bilib, undan homilaning jinsini aniqlash uchun shifokorga murojaat qilishini so'radi. Ertasi kuni G. shifokorga murojaat qildi va homilaning jinsi qiz ekanligi ma'lum bo'ldi. G. ushbu xabarni turmush o'rtog'i A.ga aytganida turmush o'rtog'i unga uch nafar qiz farzandlari borligini, shuning uchun homilani oldirib tashlashini aytdi. G. bunga rozi bo'lmadi. Shundan so'ng A. har kuni ishdan mast holda kelib, homilani oldirib tashlashi uchun turmush o'rtog'i G.ga ruhiy ta'sir o'tkaza boshladi. Bunday azoblarga chiday olmagan G. homilasini oldirib tashlashga rozi bo'ldi, ammo shu kuni uning ota-onasi bu haqda xabar topib, A.ga nisbatan tegishli chora ko'rishlarini so'rab IIBga murojaat qilishdi.

– *Mazkur holatda qasddan jinoyat sodir etish bosqichini aniqlang va fuqaro A.ning qilmishiga huquqiy baho bering.*

5-masala. Fuqaro P. sinfdoshi A.ni bolalikdan yaxshi ko'rar edi, biroq bir necha marotaba A.ning uyiga sovchi qo'yganiga qaramasdan rad javobini olardi. Kunlarning birida P. mast holda tun qorong'isida Bahor ko'chasi bo'ylab ketayotgan vaqtida qo'shni qishloqda yashovchi dugonasining to'yidan yolg'iz qaytayotgan A.ni ko'rib qoldi va vaziyatdan foydalanib uning nomusiga tegishga qaror qildi. Ushbu niyatini amalga oshirish maqsadida A.ga nisbatan zo'rlik ishlatgan vaqtida A. unga qarshilik ko'rsatdi, biroq P. baquvvat bo'lganligi sababli A.ning qarshiligini yengib uni yerga yiqitdi va oyoq qo'llarini bog'lab qo'ydi. Ushbu holatdan qo'rqib ketgan A. P.dan uni qo'yib yuborishini so'rab yolvora boshladi. Fuqaro P. A.ning ko'zyoshlariga chiday olmay uni qo'yib yubordi va bu haqda hech kimga og'iz ochmasligini uqtirdi.

– *Mazkur holatda qasddan jinoyat sodir etish bosqichini aniqlang va fuqaro P.ning qilmishiga huquqiy baho bering.*

6-masala. Fuqaro G. noqonuniy yo'llar bilan boylik orttirish maqsadida o'rtacha kattalikdagi ekin maydoni hisoblangan tomorqasiga kannabis o'simligi urug'ini sepadi va urug'lar unib chiqishi uchun ularni parvarish

qila boshladi. Biroq oradan bir oy o'tsada urug'lardan faqat yetti tupigina unib chiqdi. IIB xodimlari tomonidan o'tkazilgan «Qoradori» tadbiri natijasida fuqaro G. o'zining tomorqasida kannabis o'simligini yetishtirayotganligi aniqlandi va G. ushlandi.

– *Mazkur holatda qasddan jinoyat sodir etish bosqichini aniqlang va fuqaro G.ning qilmishiga huquqiy baho bering.*

7-masala. Fuqaro A. noqonuniy yo'l bilan boylik orttirish maqsadida yangi yil bayrami arafasida chet davlatdan juda ko'p miqdordagi pirotexnika buyumlarini qonunga xilof ravishda O'zbekiston Respublikasiga olib kirdi va ularni uyining yerto'lasiga joylashtirdi. Shundan so'ng A. ushbu pirotexnika buyumlarini bozorda yashirincha sotayotgan vaqtda shu yerda xizmat olib borayotgan profilaktika inspektori tomonidan ushlandi. Mazkur holat yuzasidan olib borilgan tezkor surishtiruv tadbirlari natijasida A.ning uyi yerto'lasida juda ko'p miqdorda pirotexnika buyumlari yashirilganligi aniqlandi. Biroq ekspertiza xulosasiga asosan mazkur pirotexnika buyumlarining yarmi yaroqsiz ekanligi ma'lum bo'ldi.

– *Fuqaro A.ning qilmishiga huquqiy baho bering.*

8-masala. Fuqaro A. mast holatda tanishining to'yidan uyga qaytayotganida ko'chaning boshida ilgaridan adovatda yurgan qo'shnilari J. va F.larni ko'rib qoldi va ularga e'tibor bermay yo'lini davom ettirdi. Shunda J. va F.lar uning ortidan sha'ni va g'ururiga tegadigan so'zlar bilan haqorat qilib, uni jig'iga tegishga harakat qilishdi. Bundan jahli chiqqan A. ularni o'ldirish maqsadida uyidan ov miltig'ini olib chiqib J. va F.larga qarata bir necha marotaba o'q uzdi. Olingan tan jarohati natijasida J. voqea joyida vafot etdi, F. esa og'ir tan jarohati bilan kasalxonaga yotqizildi.

– *Mazkur holat yuzasidan fuqaro A.ning qilmishiga huquqiy baho bering.*

9-masala. Fuqaro Sh. turmush o'rtog'i D.ning unga xiyonat qilayotganligini sezib qoldi va shundan so'ng unga rahmsiz muomala qilar va uning sha'ni va qadr-qimmatini muttasil ravishda kamsitib kelar edi. Bunday azoblarga chiday olmagan D. o'zini o'zi o'ldirishga qaror qildi hamda ertalab turmush o'rtog'i Sh. ishga ketganidan so'ng deraza orqali o'zini uchinchi qavatdan tashlab yubordi, ushbu holatga guvoh bo'lgan qo'shnilari zudlik bilan tez tibbiy yordamni chaqirishdi. Natijada D.ning hayoti saqlab qolindi.

– *Mazkur holatda qasddan jinoyat sodir etish bosqichini aniqlang va fuqaro Sh.ning qilmishiga huquqiy baho bering.*

10-masala. Jinoyat kodeksining 164-moddasi 3-qismi «b» bandida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etishda ayblanib, ehtiyot chorasi sifatida qamoqda saqlanayotgan B. sud muhokamasiga olib ketilayotgan vaqtida u olib ketilayotgan transport vositasi avtohalokatga uchradi. Soqchilarning hushsiz holdaligidan foydalanib B. voqea joyidan yashirindi. Biroq oradan ikki kun o'tgach qilmishidan pushaymon bo'lib, o'z xohishi bilan IIBga borib murojaat qildi.

– *Mazkur holat yuzasidan fuqaro B.ning qilmishiga huquqiy baho bering.*

11-masala. Fuqaro G. mast holatda oldindan kelishmay yurgan qo'shnilar aka-uka X. va F.larni o'ldirish maqsadida uyiga bostirib kirdi va o'z xonasida uxlab yotgan X.ning badani bir necha bor oshxona pichog'i bilan urdi. F. akasining xonasida qattiq shovqin bo'layotganligini eshitib, xonaga kirganida G. uning ham badaniga bir marotaba pichoq sanchib oldi. F. G.ning yiqilib tushganligidan foydalanib, ko'chaga yugurib chiqdi va boshqa shaxslarni yordamga chaqirdi. Ko'rilgan choralar natijasida G. qo'lga olindi. Tergov jarayonida fuqaro X.ning ko'p qon yo'qotishi natijasida o'lim kelib chiqqanligi va F.ga og'ir shikast yetkazilganligi aniqlandi.

– *Mazkur holat bo'yicha qasddan jinoyat sodir etish bosqichini ayting.*

12-masala. Maktab direktori D. fuqaro M.ni o'qituvchi lavozimiga ishga joylab qo'yish uchun bir mln. so'm so'radi. M. olti yuz ming so'm pulni olib kelib berdi va qolgan pullarni ikki haftadan keyin berishini aytdi. M. ushbu holat to'g'risida ichki ishlar idoralariga xabar berdi. O'tkazilgan tadbir jarayonida maktab direktori D. fuqaro M.dan to'rt yuz ming so'm olayotgan vaqtda qo'lga olindi.

– *Mazkur holat bo'yicha qasddan jinoyat sodir etish bosqichini aniqlang.*

13-masala. Ichki ishlar idoralari xodimlari tomonidan fuqaro S. shaxsiy tintuv o'tkazilayotganda ichki cho'ntagidan maxsus qadoqlangan oq kukun (poroshok) modda topildi. Ma'lum bo'lishicha, fuqaro S. o'zi iste'mol qilishi uchun fuqaro B.dan 0.5 gramm «geroin» giyohvandlik vositasini sotib olganligi to'g'risida ko'rsatma berdi. O'tkazilgan tergov harakatlari natijasida ushbu modda oddiy ohak (qurilish ashyosi) ekanligi ma'lum bo'ldi.

– *Fuqaro S.ning harakatlarida jinoyat alomatlari mavjudmi?*

14-masala. Fuqaro Y. tunda dorixona eshigini kalit tanlash usuli bilan ochib, tarkibida giyohvand moddalari mavjud bo'lgan dori vositalarini talon-toraj qilayotgan vaqtda ichki ishlar idoralari xodimlari tomonidan qo'lga olindi. Dastlabki tergov davomida Y.ning bu dori vositalarini sotish maqsadida talon-toraj qilganligi aniqlandi.

– *Qasddan jinoyat sodir etish bosqichini aniqlang.*

15-masala. Fuqaro K. yetmish yoshli buvasi D.ning turarjoyini egalash maqsadida uning ovqatiga hayot uchun o'ta xavfli bo'lgan zahar qo'shib qo'ydi. D. ovqatlangach o'zini yomon his qila boshladi. K.ga buvasining og'ir qiynalayotgani ta'sir qilib, rahmi kelganidan tez tibbiy yordam chaqirdi. D.ning o'z vaqtida zarur tibbiy yordam ko'rsatilishi natijasida hayoti saqlanib qolindi, lekin oshqozonida ikki santimetrlik yara paydo bo'lib, bitta buyragining faoliyati buzilib, oqibatida tamoman ishlamay qoldi.

– *Fuqaro K.ning qilmishiga huquqiy baho bering.*

VII bob. Jinoyatda ishtirokchilik

1-masala. Tunda I. temir yo'l qismining moddiy boyliklar saqlanadigan ombori oldidan o'tib ketayotganda, u yerda unga notanish shaxsning moddiy qimmatlikka ega bo'lgan mulklarni olayotganligini ko'rdi va u ham konteyner oldiga kelib, xrustal idish-tovoqlar solingan qutilardan birini olib ketdi.

– *Mazkur holatda ishtirokchilik mavjudmi?*

2-masala. O. transport vositasini to'xtatib, haydovchidan uni zudlik bilan aeroportga olib borib qo'yishini so'raydi va unga buning uchun o'rnatilgan ta'rifdan 5 karra ortiq haq to'lashini aytadi. Shunda haydovchi rozi bo'ladi va aeroport tomon ketayotganida svetoforming qizil chirog'ini ko'rib to'xtamoqchi bo'lganida yo'lovchi unga to'xtamaslikni buyuradi. Ular svetoforming taqiqlovchi qizil chirog'i yonib turgan vaqtda chorrahadan o'tayotganda piyodani urib yuborib, unga og'ir darajadagi shikast yetkazadi.

– *Mazkur holatda ishtirokchilikning qanday shakli mavjud?*

3-masala. Transport vositasini o'g'irlash maqsadida X. garaj eshigini kalit tanlash yo'li bilan ochadi va u yerda turgan transport vositasini ochishga urinadi, biroq uni ocha olmaydi. Shunda X. tanishi S.ga qo'ng'iroq qilib, transport vositasini yaqin qarindoshi P.ning uyiga shatakka olib, tortib borishni iltimos qiladi. P. rozilik berganidan so'ng ko'zlangan tadbir

amalga oshiriladi va X. o'g'irlangan transport vositasining avtomagnitolasi va zaxira balonini P.ga beradi.

– *Mazkur holatda ishtirokchilik mavjudmi? Agar mavjud bo'lsa, u ishtirokchilikning qanday turi va shaklida ifodalangan?*

4-masala. K. tanishlari B. va S.larga ularning biznes bo'yicha sobiq tanishi bo'lgan A.ning nomusiga tegishni taklif qiladi. K. tomonidan ishlab chiqilgan jinoiy rejaga ko'ra, B. va S.lar A.ning xonadoniga kirib, uning nomusiga tegishlari kerak bo'ladi. B. va S.lar reja bo'yicha A.ning xonadoniga kirib, unga bo'lgan voqeani aytib beradi. Shunda A. jinoiy rejalarini amalga oshirmasliklari evaziga, ularga haq to'lashi mumkinligini ma'lum qiladi. B. va S.lar uning taklifiga ko'nib, qimmatbaho narsalarni olib, u yerdan ketadi.

– *Mazkur shaxslarning qilmishiga yuridik baho bering.*

5-masala. Jinoiy guruh rahbari A. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 221-moddasi tartibida Toshkent shahar Yunusobod tumani IIBda ushlab turilgan ukasini ozod qilish maqsadida, jinoiy guruh a'zolarini yig'adi. Kechasi jinoiy guruh a'zolari 70 nafar tarkibda IIBni qurshab olib, IIB xodimlaridan A.ning ukasini ozod qilishni talab qiladi. Bunga rad javobini olganlaridan so'ng, A. binoni qo'lga olishga buyruq beradi. Shunda voyaga yetmaganlar X. va B.lar ikkita transport vositasini yoqib yuboradi. A. esa, IIB navbatchilik qismi navbatchisiga og'ir darajadagi shikast yetkazib, ukasini u yerdan olib ketadi. So'ngra tanishi L.ning uyiga borib, undan ukasini vaqtincha yashirib turishini so'raydi.

– *Ko'rsatilgan shaxslarning qilmishiga jinoiy-huquqiy baho bering.*

6-masala. X. qo'shnisi K.dan o'ch olish maqsadida aqli zaif M.ni K.ning 15 yoshli qizining nomusiga tegishga ko'ndiradi. M. qizning nomusiga tegish uchun tajovuz qilayotgan vaqtda, qiz unga faol qarshilik ko'rsatadi. Natijada M. voqea joyida qizni bo'g'ib o'ldirib qo'yadi.

– *Jinoyat sodir etilishida ishtirok etgan har bir shaxsning qilmishiga jinoiy-huquqiy tavsif bering.*

7-masala. Fuqaro X. 13 yoshli G. bilan birga dorixonaga yashirin ravishda kirib, u yerdan tarkibida «psixotrop» moddasi bo'lgan tabletkalarni egallab, boshqa shaxslarga o'tkazar edi. Bundan tashqari, X. tish pastasini paketlarga qadoqlab G. orqali «geroin» tariqasida o'tkazar edi.

– *Ishtirokchilikning shakli va turlarini aniqlang hamda ularning javobgarlik masalasini hal qiling.*

8-masala. Korxona rahbari B. kotibasi N. bilan doimiy ravishda jinsiy aloqa qilishi natijasida u homilador bo‘lib qoldi. B. uning oldiga borib boladan qutilish kerakligini, aks holda, munosabatni uzishini ma’lum qilgan. N. esa B. ketganidan so‘ng bolani bo‘g‘ib o‘ldirgan.

– *Ushbu holatda ishtirokchilik mavjudmi?*

– *B.ning harakatlarini dalolatchilik deb baholash mumkinmi? Agar mumkin bo‘lsa, B. qaysi jinoyatda dalolatchi bo‘ladi?*

9-masala. Aksiyadorlik kompaniyasining direktori A. omborxona mudiri S.ga 10 dona kompyuter jamlanmasini rasmiylashtirmasdan, tegishli hujjatlarsiz K.ga berib yuborish to‘g‘risida ko‘rsatma beradi. Shundan so‘ng S. tegishli hujjatlarsiz 10 dona kompyuter jamlanmasini K.ga beradi.

– *Mazkur holat bo‘yicha ishtirokchilikning turi va shaklini aniqlang.*

10-masala. Qozog‘iston Respublikasi fuqarosi M. Toshkentdagi tanishi K.ning xonadoniga keladi va bu yerda AQSH dollarini qalbakilash-tiradi. Qalbaki pullarni M. ularni o‘tkazish bilan shug‘ullanadigan tadbirkor T.ga beradi. M. Qozog‘istonga ketishdan oldin qalbaki pullarning bir qismini saqlab turish uchun S.da qoldiradi.

– *Mazkur holat bo‘yicha ishtirokchilikning turi va shaklini aniqlang. Jinoyatda ishtirokchilik va jinoyatga daxldorlik o‘rtasidagi farqni tushuntiring.*

VIII bob. Bir qancha jinoyat sodir etish

1-masala. Muqaddam Jinoyat kodeksining 177-moddasi 1-qismi bo‘yicha sudlangan fuqaro P. ikki dona qalbaki 100 kupurali AQSH dollarini qonunga xilof ravishda o‘tkazayotgan vaqtda ichki ishlar idoralari xodimlari tomonidan qo‘lga olindi.

– *Mazkur holat bo‘yicha bir qancha jinoyat sodir etish shakli mavjudmi?*

2-masala. Fuqaro S. ilgaridan kelishmay yurgan fuqaro P.ni uchratib qoldi va oshxona pichog‘i bilan badanining turli joylariga jarohat yetkazib o‘ldirdi. S.ni qo‘lga olish jarayonida ichki ishlar idoralari xodimi O.ga og‘ir shikast yetkazdi.

– *Mazkur holat bo‘yicha bir qancha jinoyat sodir etish shaklini aniqlang.*

3-masala. Fuqaro I. qo'shnisi D.ni o'ldirish maqsadida ko'p qavatli uyning 5-qavatidan pastga turtib yubordi. Natijada D.ning badaniga og'ir shikast yetdi. Fuqaro I. esa shu kunning o'zida Qozog'iston davlatiga qochib ketdi. Unga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 25-moddasi 2-qismi hamda 97-moddasi 1-qismi bilan jinoyat ishi qo'zg'atilgan. Oradan bir yil o'tgach I. O'zbekistonga qaytib keldi va D.ni hech kim yo'q joydan o'tishini poylab, uni bo'g'ib, o'ta shafqatsizlik bilan o'ldirdi.

– Ushbu holatda bir qancha jinoyat sodir etish shakli mavjudmi?

4-masala. Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksining 105-moddasi 2-qismi «d» bandi (o'ta shafqatsizlik bilan odam o'ldirish)da nazarda tutilgan jinoyatni sodir etganligi uchun 14 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tab kelgan O'zbekiston Respublikasining fuqarosi O. Toshkent shahrida O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 97-moddasi 2-qismi «i» bandida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etdi.

– Mazkur holat bo'yicha bir qancha jinoyat sodir etish shaklini aniqlang.

5-masala. Fuqaro S. tanishi A. ismli ayolni uyiga mehmonga taklif qilib, birgalikda spirtli ichimlik iste'mol qilishdi. Shundan so'ng fuqaro S. uni o'ldirish bilan qo'rqitib jinsiy aloqa qildi va o'z jinsiy ehtiyojini g'ayritabiiy usulda qondirdi.

– Ushbu holat bo'yicha bir qancha jinoyat sodir etish shakli mavjudmi?

6-masala. Fuqaro Z. qo'shnisi Y.ga yengil shikast yetkazganligi uchun JK 109-moddasi (qasddan badanga yengil shikast yetkazish) bo'yicha dastlabki tergov davomida jabrlanuvchi bilan yarashganligi munosabati bilan sudning ajrimiga ko'ra jinoiy javobgarlikdan ozod qilindi. Oradan bir oy o'tganidan so'ng fuqaro Z. qo'shnisi Y. bilan yana janjallashib, unga yengil shikast yetkazdi.

– Bir qancha jinoyat sodir etishning qanday shakli mavjud?

7-masala. Fuqaro J. va I.lar o'zaro til biriktirib, fuqaro G.ni qasddan o'ldirishdi. Shundan so'ng fuqaro J. jinoyat izlarini to'liq yo'q qilish maqsadida o'zining sherigi I.ni ham qasddan o'ldirdi. Sud fuqaro J.ning qilmishlarini kvalifikatsiya qilishda fuqaro I. hamda G.larni o'ldirganligini

hisobga olib, uning qilmishini JKning 97-moddasi 2-qismi «a» bandi (ikki yoki undan ortiq shaxsni qasddan odam o'ldirish) bilan baholadi.

– *Ushbu holat bo'yicha sudning hukmi to'g'rimi?*

8-masala. Fuqaro V. o'zgalar mulkini talon-toraj qilish maqsadida O.ning uyiga qurollangan holda bostirib kirib, O. qarshilik qilganligi sababli uning badaniga og'ir shikast yetkazdi va uyida mavjud bo'lgan ancha miqdordagi pullarini talon-toraj qilib, voqea joyidan yashirindi. Oradan ikki kun o'tganidan keyin fuqaro O. olgan shikast natijasida kasalxonada vafot etdi. Sud fuqaro V.ning qilmishlarini Jinoyat kodeksining 164-moddasi 3-qismi «v» va «g» bndlari (uy-joyga, omborxona yoki boshqa binolarga g'ayriqonuniy ravishda kirgan holda, badanga og'ir shikast yetkazgan holda sodir etilgan bosqinchilik) hamda 104-moddasi 3-qismi «d» bndlari (jabrlanuvchining o'lishiga sabab bo'lgan qasddan badanga og'ir shikast yetkazish) jinoyatlari majmui sifatida kvalifikatsiya qildi.

– *Mazkur holat bo'yicha sud fuqaro V.ning harakatlarini to'g'ri kvalifikatsiya qilganmi?*

9-masala. Fuqaro B. pornografik mahsulotni O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirganligi uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin uch oy o'tgach, pornografik mahsulotni takroran O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirganligi aniqlangan.

– *Fuqaro B.ning qilmishlarida bir qancha jinoyat sodir etishning qanday shakli mavjud?*

10-masala. Fuqaro P. javobgarlikni og'irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o'ldirganligi uchun Jinoyat kodeksining 97-moddasi 2-qismi «d» bandi bo'yicha o'n yetti yil ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tab chiqqanidan keyin ikki yil o'tgach ko'p miqdorda bosqinchilik jinoyatini sodir etganligi bo'yicha aybdor deb topildi. Tergovchi uning o'ta og'ir jinoyat sodir etganligi, shuningdek ilgari ham o'ta og'ir jinoyat sodir etganligini hisobga olib, uni o'ta xavfli retsivist deb topib, uning qilmishini Jinoyat kodeksining 164-moddasi 4-qismi «b» bandi sifatida kvalifikatsiya qildi.

– *Mazkur holat bo'yicha tergovchining harakatlari to'g'rimi?*

Uchinchi bo'lim. **QILMISHNING JINOIYLIGINI ISTISNO QILADIGAN HOLATLAR**

IX bob. **Qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar tushunchasi va turlari**

1-masala. Fuqaro A. tanishi B. bilan restoranda ovqatlanib o'tirishar edi. Ularning oldiga mast holatda V. kelib B.ni o'yinga taklif qildi. «Yo'q» javobini olgach, V. kuch ishlata boshladi va B.ning «tegmang» degan iltimosiga qaramay, V. B.ning qo'lidan va ko'kraklaridan ushlay boshladi. Shu payt A. V.ning yuziga musht tushiradi. V. oyoqda turolmay yiqiladi va boshi yaqin turgan stolning qirrasiga tegib og'ir tan jarohati oladi. Tergovchi I.ning harakatini kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan badanga og'ir jarohat yetkazish deb, ya'ni JKning 106-moddasini qo'llab kvalifikatsiya qilgan.

– *Yuqorida keltirilgan holatga huquqiy baho bering va A. zaruriy mudofaa holatida bo'lgan yoki bo'lmaganligini aniqlang.*

2-masala. U.ning xonadonida (hovlida) bo'layotgan to'yda mast bo'lib qolgan V. axloqsizlik qila boshlaydi. Kuyovjo'ralar V.ni to'yxonadan olib chiqishadi va kimdir uning orqasiga tepadi. Jahli chiqqan V. «Men hozir to'yni azaga aylantiraman», deydi. Ov miltig'i bilan qurollangan V. U.ning uyiga kelganida darvoza eshigi berkligi tufayli panjaradan (devordan) oshib o'ta boshlaydi. Shu payt kelinning akasi P. V.ning boshiga bolta-ning orqa qismi bilan uradi. Natijada V. olgan bosh jarohatidan o'sha joyda vafot etadi.

– *Ushbu holatga huquqiy baho bering va P. zaruriy mudofaa holatida bo'lgan yoki bo'lmaganligini aniqlang.*

3-masala. F. va P.lar tanishlari V. va G.larni P.ning xonadoniga musiqa eshitish, o'yin-kulgi qilish uchun taklif qilishadi. Qizlar rozi bo'lishadi. Spirtli ichimlik ichishgach, F. V.ni yotoqxonaga olib kirib krovatga yotqizadi va nomusiga tegishga harakat qiladi. V. qarshilik ko'rsatadi va kuchi yetmasligiga aqli yetgach, pardo stolcha ustidan pardo uchun ishlatiladigan qaychini olib, F.ning yuziga uradi. Qaychi F.ning ko'ziga tegadi. F.ga yetkazilgan tan jarohatini ekspertlar og'ir tan jarohati deb topadi.

Tergovchi bu harakatni – zaruriy mudofaa holatida og'ir tan jarohati yetkazish deb, ya'ni JKning 107-moddasi 1-qismi bilan kvalifikatsiya

qiladi. Himoyachining fikricha, V. zaruriy mudofaa holatida harakat qilgan deb baholaydi.

– *Ushbu holatga sizning fikringiz qanday?*

4-masala. 14 yoshli A. va V. P.ning dala hovlisiga kirib, unga tegishli avtomashinaning g'ildiraklaridan nikellangan qalpoqlarni yechayotganida, P. ov miltig'idan o'q uzib A.ga og'ir shikast yetkazdi, natijada A.ning o'ng qo'lini kesib tashlashga to'g'ri keldi.

– *P.ning harakatiga huquqiy baho bering.*

5-masala. M. uyidan chiqib, ruhiy kasal (shizofrenik) T.ning bir to'da begona bolalarga qarab tosh otayotganini ko'rib qoladi. Ularning orasida M.ning ham 10 yoshli o'g'li bor edi. M. sekin kelib, pishgan g'ishtning bo'lagini otmoqchi bo'lgan T.ning qo'liga gayka kaliti bilan urib T.ga o'rta og'irlikdagi tan jarohati yetkazadi.

Tergovchi M.ning harakatini JKning 105-moddasi 1-qismi bilan kvalifikatsiya qildi.

Himoyachi M. zaruriy mudofaa holatida harakat qilgan va unga nisbatan JKning 37-moddasini qo'llab, jinoiy javobgarlikdan ozod qilish lozimligini ta'kidladi.

– *Ushbu holat yuzasidan sizning fikringiz qanday ?*

6-masala. IIB navbatchisining yordamchisi Z. javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlarda qasddan odam o'ldirish jinoyati bo'yicha qo'riqlav ostida bo'lgan M.ni IIB hovlisida joylashgan hojatxonaga olib chiqdi. IIB hovlisida hech kim yo'qligidan foydalanib M. Z.ni urib yiqitib, boshiga bir necha marta tepib, Z.ning yonida bo'lgan tabel qurolini olib, devordan oshmoqchi bo'lganida PPX xodimi Y. Z.ni otib o'ldirdi.

– *Patrul post xizmati xodimi Y.ning harakatlarida qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holat mavjudmi?*

7-masala. 15 yoshli U. velosipedda ketayotib, yo'lni kesib o'tayotgan V.ning boshidan mo'ynali telpagini yulib olib qochdi. Buni motosiklda ketayotgan F. ko'rib qolib uni ushlamoqchi bo'ldi. U.ga yetib ongli ravishda mototsikl bilan urib yubordi va o'rtacha og'irlikda tan jarohati yetkazadi.

Tergovchi F.ning harakatini JKning 105-moddasi 1-qismi bo'yicha, ya'ni qasddan badanga o'rtacha og'irlikdagi shikast yetkazish deb kvalifikatsiya qildi.

Himoyachi esa, F.ga nisbatan JKning 39-moddasini qo'llab, jinoiy javobgarlikka tortmasligini ta'kidladi.

– *Yuqorida keltirilgan holatga huquqiy baho bering va zaruriy mudofaa holatini aniqlang.*

8-masala. Shahar chetidagi shosseda bir-biriga qarab ikkita avtomashina soatiga 60-70 kilometr tezlikda kelar edi. Birinchisi – yuk avtomashinasi haydovchisi K. giyohvand modda iste'mol qilgan, ikkinchisi – «Jiguli» haydovchisi R. xotini hamda 2 ta yosh bolasi bilan bo'lgan. Yo'l harakati qoidasiga zid ravishda K. avtomashinani R.ning yoritgich orqali bergan signaliga qaramay chap tomondan haydashda davom etgan. Oradagi masofa 20-30 metr qolganda R. avtomashinani chap qatorga buradi, chunki o'ng tomondagi yo'l torligi tufayli burilishning hech iloji yo'q edi. Shu vaqtda K. ham o'ng qatorga o'tgan. Natijada avtomobillar to'qnashib, «Jiguli»ga katta zarar yetadi va yo'lovchilar hamda haydovchi R. turli darajadagi tan jarohati oladilar.

Tergovchi JKning 266-moddasi 1-qismi bo'yicha R.ga nisbatan jinoiy ish qo'zg'atdi.

– *Yuqorida keltirilgan holatga huquqiy baho bering va zaruriy mudofaa holatini aniqlang.*

9-masala. Toshkent shahri yo'llaridan birida R. shaxsiy «Matiz»ini yo'l harakati qoidalariga rioya qilgan holda boshqarib borar edi. To'satdan K. yaqin masofada yo'lni mast holda kesib o'tadi. K.ni bosib ketmaslik uchun R. rulni darhol o'ngga buradi. Natijada avtomobil yo'lakka chiqib ketadi va o'tib ketayotgan piyoda V. va uning qo'lidagi chaqalog'ini urib yuboradi. Olingan jarohat tufayli ular shu joyda halok bo'ladilar.

Tergovchi R.ning harakatini JKning 266-moddasi 3-qismi «a» bandi bilan, ya'ni yo'l harakati qoidasini buzgan va odam o'limiga sabab bo'lgan deb kvalifikatsiya qiladi.

Himoyachi esa R.ni oxirgi zarurat holatida bo'lgani va JKning 38-moddasiga asosan javobgarlikdan ozod qilinishini ta'kidlaydi.

– *Mazkur holatga huquqiy baho bering va zaruriy mudofaa holatini aniqlang.*

10-masala. Uyushgan jinoiy guruh a'zolari fuqaro Sh.ning voyaga yetmagan farzandini garovga olib, undan qo'shma korxona rahbari N.ning uyiga bosqinchilik qilib, uyidagi barcha pul mablag'larini olib kelishini talab qilishdi. Fuqaro Sh. tunda yuziga niqob kiygan holda o'yinchoq

to'pponcha va oshxona pichog'i bilan qurollanib, N.ning uyiga qonunga xilof ravishda kirib, unga og'ir shikast yetkazgan holda uyida bo'lgan 7500 AQSH dollarini olib ketdi.

– *Fuqaro Sh.ning harakatlarida qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holat mavjudmi?*

11-masala. 15 yoshli B. sotuvchi T.ning joyida vaqtinchalik yo'qligidan foydalanib, peshtaxtadan egilib, sotuvdan tushgan pulning bir qismini olib qochmoqchi bo'ldi. Shu payt ikkinchi sotuvchi P. B.ni ushlab olib, ikki marta boshini devorga urgan va unga o'rta og'irlikdagi tan jarohati yetkazgan.

Tergovchi P.ning harakatini qasddan o'rtacha og'irlikdagi shikast yetkazish deb JKning 105-moddasi 1-qismini qo'llab, aybdor deb topgan.

Prokuror P. va B.ni ijtimoiy xavfli harakat sodir qilish paytida ushlab olgan va unga nisbatan JKning 39-moddasini qo'llab, jinoiy javobgar emas deb topadi.

– *Bu holatda prokurorning fikri e'tiborga loyiqmi? Sud tomonidan jarima sifatida jazo tayinlash qoidasiga rioya qilinganmi?*

To'rtinchi bo'lim. JAZO VA UNI TAYINLASH

X bob. «Jazo» tushunchasi, maqsadlari va turlari

1-masala. Fuqaro V. 2014-yilning 15-noyabr kuni tungi soat 23:00 lar-da qo'shnisi P.ning xonadoniga yashirin ravishda kirib unga tegishli bo'lgan 2 mln. so'm pul, qimmatbaho soati bilan LG televizorini yashirin ravishda talon-toraj qilgani uchun sud unga JK 169-moddasi 2-qismi «b» bandida nazarda tutilgan jinoyati bo'yicha eng kam oylik ish haqining 250 baravari miqdorda jarima jazosini tayinladi. Ammo fuqaro V. hech qayerda ishlamasligini inobatga olib sud unga bo'lib-bo'lib to'lash imkonini berdi.

Sud fuqaro V.ga tayinlangan jarima jazosi ijrosini muntazam ravishda buzib kelganligini inobatga olib, JK 44-moddasi 2-qismiga asosan unga tayinlangan jarima jazosini axloq tuzatish ishlari jazosi bilan almashtirdi. Axloq tuzatish ishlari har bir oyi eng kam oylik ish haqining o'n olti baravari miqdoridagi jarimaga tenglashtirilib, 3 yil 2 oyga almashtirildi.

– *Sudning hukmi to'g'rimi?*

2-masala. Fuqaro B. JK 126-moddasida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etganligi uchun unga eng kam ish haqining 80 baravari miqdorda jarima jazosini tayinladi. Sud fuqaro B.ning iltimosnomasiga asosan jarima jazosini kechiktirib to'lash sharti bilan unga imkon bergan. Fuqaro B. jarima jazosining 64 baravarini ijro etib, qolgan qismini to'lashdan bo'yin tovlagan. Sud fuqaro B.ning tayinlangan jarima jazosini ijro etishdan bo'yin tovlaganini inobatga olib, jarimaning qolgan miqdorini 1 oy qamoq jazosi bilan almashtirdi.

– *Ushbu holatda sudning hukmi to'g'rimi?*

3-masala. Toshkent shahrida joylashgan 8-avtokorxona haydovchisi F. belgilangan yo'nalishda yo'lovchi tashish avtobusini boshqarib ketishida belgilangan tezlikni oshirib yo'l chetida turgan fuqaro J. va uning farzandi Y.ni turtib yuborishi natijasida F.ning badaniga og'ir, Y.ning badaniga o'rtacha og'ir shikast yetkazadi. Sodir etilgan holat yuzasidan sud fuqaro F.ga JK 266-moddasi 1-qismiga asosan 2 yil 6 oy axloq tuzatish ishlari va qo'shimcha jazo tariqasida 3 yil 2 oy muayyan huquqdan mahrum qilish jazolarini tayinladi.

– *Sud tomonidan to'g'ri jazo tayinlanganmi? Fikringizni asoslantiring.*

4-masala. Fuqarolar S. va X.lar o‘zaro til biriktirib fuqaro Y.ning xonadoniga kalit tanlash yo‘li bilan kirib JK 169-moddasi 2-qismi «v» bandida nazarda tutilgan o‘g‘rilik jinoyatini sodir etishadi.

Sud jazo tayinlashda fuqaro S.ning homiladorligini inobatga olib unga nisbatan 2 yil 7 oy axloq tuzatish ishlari jazosini, fuqaro X.ga 2 yil 8 oy ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinlaydi.

– *Sudning fuqaro S.ga nisbatan tayinlagan jazosi to‘g‘rimi?*

5-masala. Sud muddatli harbiy xizmatni o‘tayotgan U.ga JK 291-moddasida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etganligi uchun uni muayyan huquq va imtiyozlardan mahrum qilib, pul ta‘minotining o‘n ikki foizi bo‘lgan miqdorini davlat daromadi hisobiga ushlab qolish sharti bilan xizmat bo‘yicha cheklash jazosini tayinlagan.

– *Mazkur holat bo‘yicha sudning hukmi to‘g‘rimi?*

6-masala. Harbiy xizmatni kontrakt bo‘yicha o‘tayotgan harbiy xizmatchi O. JK 292-moddasida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etganligi uchun sud unga muayyan huquq va imtiyozlardan mahrum qilib, pul ta‘minotining o‘ttiz ikki foizi bo‘lgan miqdorini davlat daromadi hisobiga ushlab qolish sharti bilan 1 yil 5 oy muddatga xizmat bo‘yicha cheklash jazosini tayinladi.

– *Tayinlagan jazo asoslanganmi.*

7-masala. Sud muddatli harbiy xizmatni o‘tayotgan G‘.ga JK 283-moddasida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etganligi uchun 2 yil 8 oyga ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinladi. Shu bilan birga, sud ish holatlari va mahkumning shaxsini hisobga olgan holda ozodlikdan mahrum qilish jazosi o‘rniga shu muddatga intizomiy qismga jo‘natish jazosini qo‘lladi.

– *Sudning hukmi to‘g‘rimi?*

8-masala. 17 yoshli Y. akasi F. bilan o‘zaro janjal oqibatida uni hayotdan mahrum qilib, JK 97-moddasi 2-qismi «j» bandida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etgan. Sud fuqaro Y.ni sodir etgan qilmishiga nisbatan JK 97-moddasi 2-qismi sanksiyasi doirasida, jazo tayinlashning umumiy asoslariga ko‘ra unga 22 yil 10 oy ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinladi.

– *Fuqaro Y.ga nisbatan sud tomonidan tayinlangan jazo to‘g‘rimi?*

9-masala. Fuqaro U. do‘konda oziq-ovqat mahsulotini xarid qilish vaqtida tanishi bo‘lgan M.ni uchratib qoladi. Ular o‘tgan damlarni eslash uchun U.ning xonadoniga kelishadi. Ular maktab davridagi xotiralarni

eslab suhbatlashadi. U.ning M.da maktabda o'qib yurgan davrida ko'ngli bo'lganligi sababli M.ning nomusiga tegish maqsadida uning qahvasiga uyqu keltiruvchi dorini ko'p miqdorda qo'shib beradi. M. qahvani iste'mol qilishi bilan o'zini boshqara olmay hushdan ketadi. Bu holatdan foydalangan U. M.ning nomusiga bir necha marta tegadi. M.ning qahvasiga ko'p miqdorda qo'shib berilgan dori bevosita uning ko'rish qobiliyatini yo'qotadi.

Sud U.ning sodir etgan jinoyatini JK 118-moddasi 3-qismi «d» bandiga asosan unga 14 yilga ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinlab, tayinlangan jazo muddatini qattiq tartibli koloniyada ijro etish to'g'risida hukm qiladi.

– *Ushbu holat yuzasidan sudning hukmi to'g'rimi?*

10-masala. Fuqaro G. AQSH davlati tashkiloti hisoblangan «STARTS»ga davlat sirlarini yetkazganlik uchun MXX xodimlari tomonidan qo'lga olingan. G. Davlatga xoinlik qilish JK 157-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyati uchun aybdor deb topilgan. Sud G.ga jazo tayinlashda uning ayol ekanligini inobatga olib unga 19 yilga ozodlikdan mahrum qilish va tayinlangan jazo muddatini JK 50-moddasi 8-qismiga asosan umumiy tartibli koloniyada ijro etish to'g'risida hukm chiqardi.

– *Bu holatda sudning hukmi to'g'rimi?*

11-masala. 2001-yil 10-noyabr kuni tug'ilgan fuqaro M. qo'shnisi oldindan kelishmay yurgan D.dan o'ch olish maqsadida, uning uxlab yotganidan foydalanib badanini turli joylariga bir necha marotaba zarba berib uni hayotdan mahrum qilgan, qo'shni xonada uxlab yotgan 13 yoshli V. ismli qizining nomusiga tegib uni ham hayotdan mahrum qilgan. M. jinoyatini yashirish maqsadida D. va uning qizi V.ning jasadlarini turli qismlarga ajratgan holda shu mahallada oqib o'tuvchi kanalga tashlab yuboradi.

M. harakatlari JK 97-moddasi 2-qismi «a», «j», «z» bandlari bilan kvalifikatsiya qilinib, sud unga jazo tayinlashning umumiy asoslariga ko'ra, umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinladi.

– *Sud fuqaro M.ga nisbatan chiqargan hukmi to'g'rimi?*

XI bob. Jazo tayinlash

1-masala. Fuqaro L. qo'shnisi O.ning uyiga mehmonga borib, unga tanishi bo'lgan E. bilan jinsiy aloqa qilish uchun uning xonadonidan 2 soatga 150 ming so'm evaziga bo'shatib berishini iltimos qiladi. O. far-

zandlariga qishki kiyim olib berish maqsadida bu taklifga rozi bo'ladi. Fuqaro L. tanishi E. bilan jinsiy aloqaga kirishganida shu hudud profilaktika inspektori P. xizmat yuzasidan O.ning xonadoniga tekshirish maqsadida kirganida notanish ovozlarni eshitib, L. bilan E.ni qo'lga oladi. Holat yuzasidan fuqaro O.ga JK 131-moddasi bo'yicha jinoiy ish qo'zg'atiladi. Sud O.ga jazo tayinlash vaqtida uning qaramog'ida uchta voyaga yetmagan farzandlari borligi va qilmishni nochorligidan sodir etganligini inobatga olib unga nisbatan JK 57-moddasini qo'llab, JK 131-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jarima jazosini o'n baravari miqdorda tayinlaydi.

– *Sud ushbu holatda yengilroq jazo tayinlashi mumkinmi?*

2-masala. Muqaddam JK 97-moddasi 2-qismi «i» bandi bilan sudlangan fuqaro P. JK 169-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan o'g'rilik jinoyatini sodir etgan. Sodir etgan jinoyati yuzasidan tuman IIBga aybni bo'yniga olish to'g'risida arz qilgan, shu bilan birga chin ko'ngildan pushaymon bo'lib yetkazilgan moddiy zararni ixtiyoriy ravishda bartaraf etgan.

– *Aybdor o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganida jazo tayinlash shartlarini aytib o'ting. Sud ushbu holatda fuqaro P.ga JK 169-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan eng ko'p jazoning uchdan ikki qismidan oshmagan holda jazo tayinlashi mumkinmi?*

3-masala. Fuqaro L. ishdan qaytish vaqtida sinfdoshining singlisi bo'lgan 15 yoshlik F.ni ko'rib qolib, uning nomusiga tegish maqsadida uning akasi L.ning kutib turishi va kechroq olib ketishi bazonasi bilan aldab uyiga olib ketadi. L. F.ni o'zining uyiga olib kelganida F.ga tegajog'lik qila boshlaydi. Yuzaga kelgan shovqindan L.ning qo'shnisi III xodimi bo'lgan K. L.ning eshigini buzib uning uyiga kiradi. F.ning qattiq qo'rqqanligini sezib L.ni qo'lga oladi.

– *Tamom bo'lmagan jinoyat uchun jazo tayinlash shartlari va asoslarini ko'rsating. Sud ushbu holatda L.ga nisbatan JK 58-moddasi (tamom bo'lmagan jinoyat uchun jazo tayinlash qoidasi)ni qo'llashi mumkinmi?*

4-masala. «Trans servis MCHJ» korxonasi haydovchisi Y. yuk mashinasini katta tezlikda boshqarib ketayotganida transport vositasini boshqara olmay yo'l chetida turgan fuqaro E.ni turtib yuboradi. Natijada yo'l chetida yotgan E.ning behush yotganini ko'rib, jinoiy javobgarlikdan qochish maqsadida voqea joyidan ketadi. Olingan tan jarohati natijasida E. voqea joyida vafot etadi. Haydovchi Y. olib borilgan tezkor-qidiruv ishlar natijasida qo'lga olinadi.

Sud haydovchi Y.ni sodir qilgan jinoyatlari, ya'ni JK 266-moddasi 2-qismi va 117-moddasi 2-qismi bilan uni aybdor deb topib birinchi qilmishi uchun 6 yil, ikkinchi qilmishi uchun 2 yil 10 oy ozodlikdan mahrum qilish jazolarini tayinlaydi. Bir necha jinoyat yuzasidan jazo tayinlash qoidasiga muvofiq jazolarni to'la qo'shish yo'li bilan unga uzil-kesil 8 yil 10 oy ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinladi.

– *Ushbu holatda sudning hukmi to'g'rimi?*

5-masala. Fuqaro S. JK 169-moddasi 1-qismida va 126-moddasida nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etgan. Sud S.ning birinchi jinoyati uchun 2 yil 7 oy, ikkinchi jinoyati uchun 1 yil 11 oy ozodlikdan mahrum qilish jazolarini tayinlagan.

– *Sud bir necha jinoyat sodir etganlik uchun jazo tayinlash qoidasiga ko'ra qancha muddatgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinlashi mumkin?*

6-masala. 2010-yilning 2-sentabr kuni Toshkent shahar jinoyat ishlar bo'yicha sudi tomonidan fuqaro L.ga JK 210-moddasi 2-qismi «b» bandida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etganligi uchun 9 yil 6 oy muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan. Jazoni o'tash davomida, ya'ni 2014-yilning 10-noyabr kuni L.ning 2009-yili JK 118-moddasi 4-qismida nazarda tutilgan nomusga tegish jinoyati sodir etganligi aniqlandi.

– *Sud ushbu holatda L.ga jazo tayinlashning qaysi qoidasiga ko'ra jazo tayinlashi mumkinligini aniqlang. Sud L.ga jazo tayinlashda ozodlikdan mahrum qilishning qancha muddatgacha jazo tayinlashi mumkin?*

7-masala. 2004-yil 6-mart kuni JK 119-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan jinoyat uchun 13 yilga ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilingan Z. jazo o'tash davomida 2010-yilda o'zaro janjal oqibatida mahbus Y.ni badanining turli joylariga o'tkir tig'li jism bilan jarohat yetkazishi oqibatida uni hayotdan mahrum qilib, JK 97-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etadi.

– *Sud qaysi qoidaga ko'ra, Z.ga sodir etgan jinoyati uchun jazo tayinlaydi?*

8-masala. 2003-yil 15-fevralda JK 131-moddasi 2-qismi «a» bandida nazarda tutilgan jinoyat uchun 4 yil 8 oyga hukm qilingan Y. 2009-yil 8-mart kuni jazoni birgalikda ijro etgan H.ga nisbatan JK 119-moddasi 3-qismi «d» bandida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etgan.

– Sud ushbu holatda jazo tayinlashning qaysi qoidasiga ko‘ra jazo tayinlaydi. Jazolarni to‘la, qisman qo‘shish, og‘irini yengil qoplash orqali uzil-kesil qancha muddatgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinlashi mumkin?

9-masala. Fuqaro S. JK 169-moddasi 1-qismi 120-moddasida nazarda tutilgan jinoyatlari uchun aybdor deb topilgan. Sud o‘g‘rilik jinoyati uchun 1 yil 11 oy axloq tuzatish ishlari, besoqolbozlik jinoyati uchun 2 yil 6 oy ozodlikdan mahrum qilish jazolarini tayinladi.

– Har xil turdagi asosiy jazolarni qo‘shish qoidasiga ko‘ra sud jazo muddatlarini qanday hisoblaydi?

10-masala. 2014-yilning 26-iyun kuni fuqaro Q. JK 277-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan bezorilik jinoyatini sodir etgan, shu yilning 27 iyun kuni fuqaro I.ning xonadoniga kalit tanlash yo‘li bilan kirib unga nisbatan JK 164-moddasi 2-qismi «a» bandida nazarda tutilgan bosqinchilik jinoyatini sodir etgan. Sud Q.ning sodir etgan jinoyatlari, ya‘ni bezorilik uchun 1 yilga ozodlikdan mahrum qilish, bezorilik uchun 9 yilga ozodlikdan mahrum qilish jazolarini tayinladi. Tayinlangan jazolarni to‘la qo‘shish yo‘li bilan uzil-kesil 10 yil ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinlab, tayinlangan jazo muddatini umumiy tartibli koloniyada ijro etish uchun hukm qildi.

– Ushbu holatda sud qaysi qoidaga ko‘ra jazo tayinlaydi? Sudning hukmi to‘g‘rimi?

Beshinchi bo'lim. JAVOBGARLIK DAN VA JAZODAN OZOD QILISH

XII bob. Javobgarlikdan ozod qilishning turlari

1-masala. Fuqaro J. amakisi T. bilan uy-joy masalasida yuzaga kelgan janjal oqibatida oshxonada turgan pichoq bilan uning yurak qismiga bir necha marotaba zarba berib, uni hayotdan mahrum qilib, JK 97-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etgan. Jinoiy javobgarlikdan qutilish maqsadida Rossiya Federatsiyasiga ketgan. Fuqaro J. tergov yoki suddan yashirinmagan.

– *Fuqaro J.ning sodir etgan jinoyatining JK 64-moddasiga asosan javobgarlikdan ozod qilish muddatining o'tishini aniqlang.*

2-masala. Fuqaro U. boylik orttirish maqsadida 2002-yil 21-mart kuni qo'shnisi P.ning xonadoniga qurollangan holda niqob ostida bostirib kirib JK 164-moddasi 4-qismi «a» bandida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etgan. Olib borilgan surishtiruv ishlar natijasida ushbu jinoyat fosh etilmagan. Bu holatdan foydalangan fuqaro U. jinoiy sheriklari bilan o'zaro til biriktirib, 2010-yilning 26-iyun kuni «Nafisa» MCHJ xususiy firma bosh hisobchisi tomonidan shu korxona xodimlarining oylik maoshini olib kelayotganda unga nisbatan ochiqdan-ochiq hujum qilib JK 166-moddasi 2-qismi «v» bandi va 4-qismi «a» bandida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etganlar.

– *Fuqaro U.ning sodir etgan jinoyatlarining javobgarlikdan ozod qilish muddatini aniqlang va asoslab bering.*

3-masala. Muqaddam JK 167-moddasi 1-qismi bilan sudlangan O. hamkasbi L.ga nisbatan JK 140-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etgan. Sodir etgan jinoyatidan qattiq pushaymon bo'lib aybini bo'yniga olish to'g'risida tuman IIBga murojaat qilgan, sodir etgan qilmishidan chin ko'ngildan pushaymon bo'lib, hamkasbi L.ga keltirilgan ma'naviy zararni qoplagan.

– *Sud fuqaro O.ning harakatlarida JK 66-moddasida nazarda tutilgan asoslar mavjudligini inobatga olib, uni jinoiy javobgarlikdan ozod qilishi mumkinmi?*

4-masala. «Madad OOO MCHJ» bosh hisobchisi H. bankdan korxona xodimlariga navbatdagi oylik maoshini tarqatish maqsadida 150 mln.

so'm pulni olib, ushbu pulga jinoiy tajovuz bo'lmasligi maqsadida «LACETTI» avtomobilining tezligini oshirib boshqarib ketayotganida piyodalar o'tish yo'lagidan o'tayotgan fuqaro S.ni ko'rib transport vositasini boshqarishni eplay olmay natijada uni turtib yuboradi. Yuzaga kelgan holat yuzasidan ukasi R.ni chaqirtirib uning transport vositasida S.ni shifoxonaga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish uchun olib borishini iltimos qiladi. Shifoxonada shifokor S.ning badaniga og'ir tan jarohati yetkazilganligi haqida xulosa beradi. H. sodir etgan harakatidan chin ko'ngildan pushaymon bo'lib IIBga aybini bo'yniga olib murojaat qilgan S.ni shifoxonada davolanish uchun zarur bo'lgan dori-darmonlar bilan ta'minlaydi. Fuqaro H. S.ga o'z qilmishidan qattiq pushaymonligini va unga har qanday yordam zarur bo'lsa yordam berishini aytadi. Lekin S. H.ning o'zi shifoxonaga olib kelmaganligini ro'kach qilib u bilan yarashishni istamaydi.

– *H. S.ga shifoxona xarajatlarini qoplaganligi, o'z aybini bo'yniga olish to'g'risida IIBga murojaat qilganligi, amalda pushaymonligi holatlari yuzasidan JK 66¹-moddasi asosida jinoiy javobgarlikdan ozod qilinishi mumkinmi?*

5-masala. Fuqaro G. fuqaro M.ga nisbatan JK 164-moddasi 4-qismi «a» bandi, fuqaro U.ga nisbatan 113-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etgan. Sud jazo tayinlash vaqtida G. U. bilan yarashib, amalda pushaymon bo'lib, yetkazilgan zararni qoplaganligi hamda aybini bo'yniga olish to'g'risida murojaat qilganligini inobatga olib, faqat 113-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyati uchun JK 661-moddasi asosida jinoiy javobgarlikdan ozod qilishi mumkinmi?

– *Mazkur holat yuzasidan javobingizni asoslab bering.*

6-masala. Fuqaro H. 2008-yil 14-avgust kuni tanosil kasalligi bilan kasallanganligini bila turib, fuqaro U. bilan jinsiy aloqaga kirishib JK 113-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etgan. H.ga nisbatan tergov ishlari amalga oshirilishi davomida u o'z aql-idrokini boshqara olmaydigan darajada ruhiy kasallikka chalinib qoladi. Sud psixiatriya ekspertiza xulosasiga ko'ra, u aqli noraso deb topilib, unga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llaniladi. 2011-yilning 13-avgust kuni fuqaro H. shifokorlarning bergan xulosasiga asosan sog'lom deb topiladi.

– *Fuqaro H.ning jinoiy javobgarlikdan ozod qilinish muddatini aniqlang.*

7-masala. «FAZO» xususiy korxonasi rahbari X. bosh hisobchisi bo'lgan P. va kotibasi A.dan 2014-yil yakuni bo'yicha hisobotni tayyorlab

bo'lganlaridan so'ng uylariga ketishlari mumkinligini buyruq sifatida aytadi. Hisobotni tayyorlash vaqtida kechki soat 20:35larda bosh hisobchi P. mineral suv ichib kelish uchun do'konga chiqib ketadi. Bu holatdan foydalangan korxona rahbari X. kotibasi A.ning xonasiga kirib eshigini qulflagan holda uning nomusiga tegadi. Korxona kotibasi A. sodir bo'lgan holat yuzasidan tuman IIBga arz qilib boradi. Korxona rahbari X. sodir etgan harakatidan qattiq pushaymon bo'lib, aybini bo'yniga olish to'g'risida IIBga murojaat qiladi va kotibasidan uni kechirishini so'rab unga uylanishga va'da beradi. Bu shartga korxona kotibasi rozi bo'lib rahbari X.ni kechiradi.

– *Ushbu holatda korxona rahbari X. JK 66¹-moddasi asosida jinoiy javobgarlikdan ozod qilinishi mumkinmi?*

8-masala. Fuqaro H. ota-onasidan alohida chiqib, turmush o'rtog'i va farzandi bilan boshqa uyda yashay boshladi. Sud tomonidan H.ga nisbatan ota-onasini moddiy ta'minlash yuzasidan hal qiluv qarori qabul qilingan. Ammo H. 4 oy muddat davomida ota-onasidan xabar olmay, ularni moddiy ta'minlamagan. Buning natijasida H.ning otasi V. sudga da'vo arizasi bilan shikoyat qilgan. Mazkur holat yuzasidan H.ga nisbatan JK 124-moddasi bo'yicha jinoyat ishi qo'zg'atilgan. H.ning sodir etgan xatti-harakati yuzasidan sud ishi ko'rilishidan ikki kun oldin uning ota-onasi vafot etgan.

– *Mazkur holat yuzasidan H. JK 65-moddasi asosida jinoiy javobgarlikdan ozod qilinishi mumkinmi?*

9-masala. Fuqaro J. 2014-yilning 18-noyabr kuni fuqaro P.ga nisbatan JK 111-moddasida nazarda tutilgan va 24-noyabr kuni fuqaro Z.ga nisbatan JK 115-moddasida nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etgan. J.ga nisbatan sodir etgan har ikkala jinoyati yuzasidan tergov ishlari olib borilishi davomida P. va Z. bilan yarashib, aybini bo'yniga olish to'g'risida IIBga murojaat qilgan va yetkazilgan zararni to'liq qoplagan.

– *Mazkur holatda fuqaro J. JK 66¹-moddasi asosida jinoiy javobgarlikdan ozod qilinishi mumkinmi? Asos va shartlarini ko'rsating.*

10-masala. Fuqaro Y. 2001-yilning 22-avgust kuni JK 166-moddasida nazarda tutilgan jinoyatni va 2005-yilning 20-avgust kuni esa JK 168-moddasi 2-qismi «a» bandida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etgan.

– *Javobgarlikka tortish muddatining o'tib ketganligi munosabati bilan jinoyat uchun javobgarlikdan ozod qilish shartlari va asoslarini ko'rsating. Mazkur holatda fuqaro YU.ning javobgarlikka tortish muddati-*

ning o‘tib ketganligi munosabati bilan jinoyat uchun javobgarlikdan ozod qilishni aniqlang.

XIII bob. Jazodan ozod qilishning turlari

1-masala. Umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm etilib, jazoning amaldagi 20 yil 4 oyini o‘tagan S. o‘zini afv etish to‘g‘risida iltimosnoma taqdim etdi. Aniqlanishicha, u ilgari ikki marotaba ichki tartib-qoidalarini buzganligi uchun intizomiy jazolangan.

– Mahkum S. umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosidan afv etish bo‘yicha iltimosnoma taqdim etishi mumkinmi?

2-masala. Fuqaro L. Jinoyat kodeksi 266-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etganlikda aybdor deb topilib, unga 6 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlandi. Tayinlangan jazoning 2 yil 4 oyini o‘taganidan keyin Jinoyat kodeksining 75-moddasiga asosan, og‘ir kasallikka chalinganligi sababli jazodan ozod qilindi va unga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari tayinlandi. Tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarining 2 yil 6 oyi o‘tganidan keyin L. Jinoyat kodeksi 105-moddasi 2-qismi «v» bandida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etganlikda aybdor deb topilib, unga nisbatan 4 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlandi. Tibbiy xulosaga ko‘ra, L. bu vaqtda og‘ir kasalligi uchun tuzalganligi ma’lum bo‘ldi.

– Fuqaro L.ga nisbatan tayinlanishi mumkin bo‘lgan jazoning eng yuqori muddatini aniqlang.

3-masala. Fuqaro Y. Jinoyat kodeksining 166-moddasi 2-qismi «b» bandida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etganlikda aybdor deb topilib, unga nisbatan 5 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanib, Jinoyat kodeksining 73-moddasi asosida tayinlangan jazodan ozod etildi va unga 3 yil sinov muddati belgilandi. Sinov muddati davomida Y. Jinoyat kodeksining 169-moddasi 3-qismi «v» bandida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etganlikda aybdor deb topilib, 7 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlandi.

– Fuqaro Y.ga nisbatan tayinlanishi mumkin bo‘lgan jazoning eng yuqori muddatini aniqlang.

4-masala. Fuqaro D. Jinoyat kodeksining 248-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etganlikda aybdor deb topildi. Sud aybdor-

ning o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi munosabati bilan uni jazodan ozod qildi.

– *Mazkur holat bo'yicha sudning qarori to'g'rimi?*

5-masala. Fuqaro I. Jinoyat kodeksi 246-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etganlikda aybdor deb topilib, unga 12 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlandi. Tayinlangan jazoning 8 yilini o'taganidan keyin Jinoyat kodeksining 73-moddasiga asosan, jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilindi.

– *Ushbu holatda fuqaro I. jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilinishi mumkinmi?*

6-masala. Fuqaro A. ayol kishi bo'lishiga qaramasdan jinoiy guruhga qo'shib qoldi va shu guruh tarkibida Jinoyat kodeksi 135-moddasi 3-qism «a» bandida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etganligi uchun Toshkent shahar Mirobod tumani jinoyat ishlari bo'yicha sudining hukmiga asosan 6 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilinib, JKning 72-moddasiga asosan ushbu jazoni shartli hisoblab, 3 yil sinov muddati belgilandi.

– *Sudning fuqaro A.ga nisbatan chiqargan hukmi to'g'rimi?*

7-masala. Muqaddam bir necha marotaba sudlangan V. tanishi A.ga birgalikda jinoyat sodir qilishni taklif qildi. A. ushbu taklifga rozi bo'ldi. Biroq oradan bir oy o'tgandan so'ng A.ning fikri o'zgarib, sodir etgan jinoyatlaridan pushaymon bo'lib, boshqa jinoyat sodir etmaslikka qaror qildi hamda tuman IIBga borib aybini bo'yniga olish to'g'risidagi ariza bilan murojaat qildi va jinoiy sherigi V.ni fosh qilishga yordam berdi. Bu vaqtga kelib ular birgalikda ikkita jinoyat, ya'ni JKning 164-moddasi 3-qism «b» bandi hamda 169-moddasi 2-qism «v» va «g» bandlarida nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etgan edilar.

Toshkent shahar Chilonzor tumani jinoyat ishlari bo'yicha sudi fuqaro A.ni o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi munosabati bilan Jinoyat kodeksi 71-moddasiga asosan jazodan ozod qildi.

– *Sudning fuqaro A.ga nisbatan chiqargan hukmi to'g'rimi?*

XIV bob. Sudlanganlik

1-masala. Fuqaro O. Jinoyat kodeksining 168-moddasi 3-qismi «a» bandida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etganligi uchun 8 yil muddatga

ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanib, amnistiya aktiga asosan jazoning amalda 4 yilini o'tab bo'lganidan so'ng ozodlikka chiqarildi. Ozodlikka chiqib, 14 oy o'tganidan so'ng Jinoyat kodeksi 104-moddasi 3-qismi «a» bandida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etganlikda aybdor deb topilib, unga 9 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlandi va tayinlangan jazoning amalda 6 yilini o'tab ozodlikka chiqarildi.

– *Fuqaro O.ning sudlanganlik muddatlari qaysi qoidaga asosan hisoblanadi.*

2-masala. Fuqaro F. Jinoyat kodeksining 104-moddasi 2-qismi «d» bandida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etganligi uchun 6 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanib, jazoni 3 yil 6 oyini o'taganidan so'ng JKning 73-moddasiga asosan jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilindi.

– *Fuqaro F.ning sudlanganlik holatining tugallanish muddatini aniqlang.*

3-masala. Fuqaro P. Jinoyat kodeksining 210-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etganligi uchun 2 yil muddatga muayyan huquqdan mahrum qilinib, 4 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlandi. Jazoni amalda 2 yilini o'tab bo'lganidan so'ng ozodlikka chiqarildi.

– *Fuqaro P.ning sudlanganlik muddatlari qaysi qoidaga asosan hisoblanadi?*

4-masala. Fuqaro I. Jinoyat kodeksining 166-moddasi 3-qismi «a» bandida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etganligi uchun 8 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanib, amnistiya aktiga asosan jazoni amalda 4 yilini o'tab bo'lganidan so'ng ozodlikka chiqarildi. Ozodlikka chiqib, 28 oy o'tganidan so'ng Jinoyat kodeksi 266-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etganlikda aybdor deb topilib, unga 5 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlandi va tayinlangan jazoning amalda 3 yilini o'tab ozodlikka chiqarildi.

– *Fuqaro I.ning sudlanganlik muddatlari qaysi qoidaga asosan hisoblanadi?*

5-masala. Fuqaro A. Jinoyat kodeksining 182-moddasi 2-qismi «a» bandida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etganligi uchun 6 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanib, jazoni amalda 4 yilini o'tab bo'lganidan so'ng ozodlikka chiqarildi. Ozodlikka chiqib, 15 oy o'tgani-

dan so‘ng fuqaro A. sudga sudlanganligini olib tashlash bo‘yicha iltimosnoma kiritdi. Sud uning iltimosnomasini inobatga olib, A.ning sudlanganlik muddatini olib tashladi.

– *Sud mazkur holatda fuqaro A.ning sudlanganligini olib tashlashi mumkinmi?*

6-masala. Fuqaro H. Jinoyat kodeksining 169-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etganligi uchun eng kam oylik ish haqining qirq sakkiz baravari miqdorida jarima jazosiga hukm qilindi. H. jazoni ijro etishdan bosh tortganligi uchun sud jarima jazosini 3 oy axloq tuzatish ishlari jazosiga almashtirdi.

– *Fuqaro H.ning sudlanganlik muddatlari qaysi qoidaga asosan hisoblanadi?*

7-masala. Fuqaro G. Jinoyat kodeksining 97-moddasi 2-qismi «j» bandida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etganligi uchun 16 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanib, jazoni 13 yil 2 oyini o‘taganidan so‘ng jazoni o‘tashga to‘sqinlik qiladigan og‘ir kasallikka chalinib qoldi va JKning 75-moddasiga asosan jazodan ozod qilindi.

– *Fuqaro G.ning sudlanganlik holatining tugallanish muddatini aniqlang.*

Oltinchi bo'lim. VOYAGA YETMAGANLAR **JAVOBGARLIGINING XUSUSIYATLARI**

XV bob. Jazo va uni tayinlash

1-masala. Sud voyaga yetmagan D.ga bir yilga axloq tuzatish ishlari jazosini belgiladi, biroq D. jazoni o'tashdan bo'yin tovlagani uchun unga 3 oyi 25 besh kun qamoq jazosi bilan almashtirdi.

– *Mazkur holat yuzasidan sud D.ga to'g'ri jazo tayinlaganmi?*

2-masala. Sud 15 yoshli voyaga yetmagan R.ga nisbatan JK ning 97-moddasi 2-qism «l» bandida nazarda tutilgan jinoyati uchun 10 yilu 7 oy ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinladi.

– *Sud tomonidan R. ga to'g'ri jazo qo'llanilganmi?*

3-masala. Sud JK 169-moddasi 2-qism «g» bandidagi jinoyati uchun voyaga yetmagan I.ga nisbatan 3 oyi 15 kun muddatga qamoq jazosini tayinladi.

– *Sud tomonidan I. ga to'g'ri jazo tayinlanganmi?*

4-masala. Jinoyat ishlari bo'yicha tuman sudi voyaga yetmagan K.ga nisbatan eng kam oylik ish haqining 30 baravari miqdorida jarima jazosi tayinladi.

– *K.ga nisbatan tayinlangan jazo to'g'rimi?*

5-masala. Jinoyat ishlari bo'yicha tuman sudi 17 yoshli voyaga yetmagan X.ga jinoyatlar majmui tariqasida 12 yilu 7 oy ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinladi.

– *Sudning hukmi qonuniy asosga egami?*

6-masala. Sud og'ir turdagi jinoyatni sodir etgan voyaga yetmagan J.ga nisbatan 7 yil ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinladi.

– *Sud jazo qo'llash qoidasiga rioya qilganmi?*

7-masala. 17 yoshli A. JKning 168-moddasi 1-qismi bilan sudlanib, ish joyida maoshidan 20 foizini davlat hisobiga o'tkazgan holda ikki yilga axloq tuzatish ishiga hukm qilingan.

– *Sud jazo qo'llash qoidasiga rioya qilganmi?*

8-masala. Sud JK ning 117-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etgan voyaga yetmagan B.ga nisbatan 2 oy qamoq jazosini tayinladi.

– *Sudning hukmi qonuniymi?*

9-masala. Sud JKning 267-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etgan voyaga yetmagan V.ga 3 yilu 5 oy muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinladi.

– *Sudning hukmi to‘g‘ri qo‘llanilganmi?*

10-masala. 17 yoshli K. JKning 118-moddasi 2-qismida ko‘rsatilgan nomusga tegish jinoyatini sodir etgan. Bu jinoyat uchun yetti yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum etish jazosi belgilanadi. Sud aybdorni sakkiz yilga ozodlikdan mahrum etish haqida hukm chiqardi.

– *Sud jazo tayinlashda qoidaga rioya qilganmi?*

XVI bob. Javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilish

1-masala. Sud 16 yoshli R.ga eng kam oylik ish haqining 11 baravarida fuqaro L.ga zarar yetkazganligi uchun JKning 88-moddasi 2-qism «b» bandini qo‘llab o‘z mablag‘i hisobidan to‘lash majburiyatini yukladi.

– *Sudning qarori to‘g‘rimi?*

2-masala. Sud JKning 166-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etgan voyaga yetmagan D.ga JKning 87-moddasi 2-qismi qoidalariga amalga qilmagan holda 5 yilga ozodlikdan mahrum qildi.

– *Sudning hukmi qonuniymi?*

3-masala. Sud JKning 169-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etib, 3 yilga ozodlikdan mahrum qilingan voyaga yetmagan D. jazo muddatining 9 oyini o‘tadi. Jazoni o‘tash vaqtida belgilangan tartib-qoida talablarini bajargan hamda mehnatga va o‘qishga halol munosabatda bo‘lib kelgan.

Sud D.ga nisbatan jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilmadi.

– *Sudning harakatlariga huquqiy baho bering.*

4-masala. Sud JKning 166-moddasi 3-qism «b» bandida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etgan voyaga yetmagan R.ni 6 yilga ozodlikdan mahrum etgan. R. tayinlangan jazoning 17 oyini o‘tagandan so‘ng, sud unga JK 90-moddasi 2-qismiga ko‘ra, jazoni axloq tuzatish ishlariga almashtirdi.

– *Sudning qarori to‘g‘rimi?*

5-masala. Sud JKning 164-moddasi 2-qismi «b» bandida nazarda tutilgan jinoyat uchun 9 yilga ozodlikdan mahrum qilingan voyaga yetmagan D.ga umumiy jazoning 3 yilini o'taganligi uchun JK 89-moddasi 2-qismiga asoslanib, o'talmay qolgan qismini jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qildi.

– *Sudning hal qiluv qarori qonuniy asosga egami?*

6-masala. Sud voyaga yetmagan E.ga JK 166-modda 1-qism, 164-modda 1-qism, 97-modda 2-qism «a» bandida nazarda tutilgan jinoyatlari uchun 15 yil 7 oyga ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinladi.

– *Sud jinoyatlar majmui tariqasida jazo tayinlash qoidalariga amal qilganmi?*

7-masala. Sud voyaga yetmagan 16 yoshli M.ga sodir etgan jinoyati natijasida yetkazilgan eng kam oylik ish haqining 12 baravari miqdoridagi zararni o'z mablag'i hisobidan bartaraf etish majburlov chorasini qo'lladi.

– *Sud M.ga nisbatan majburlov chorasini to'g'ri qo'llaganmi?*

8-masala. Sud voyaga yetmagan 17 yoshli L.ga sodir etgan jinoyati natijasida yetkazilgan eng kam oylik ish haqining 10 baravari miqdoridagi zararni o'z mablag'i hisobidan bartaraf etish majburlov chorasini qo'lladi.

– *Sudning qarori to'g'ri qo'llanilganmi?*

9-masala. Sud JKning 164-moddasi 2-qism «v» bandida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etgan voyaga yetmagan D.ni maxsus o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish to'g'risidagi majburlov chorasini qo'lladi.

– *Sudning qarori to'g'rimi?*

10-masala. Sud JKning 173-moddasi 3-qism «b» bandida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etgan voyaga yetmagan F.ni 3 yil 8 oyga ozodlikdan mahrum etgan. F. tayinlangan jazoning 8 oy 8 kunini o'tagach, sud unga JK 90-moddasi 2-qismiga asosan, jazoni axloq tuzatish ishlariga almashtirdi.

– *Sud F.ga nisbatan to'g'ri qaror qo'llaganmi?*

***XVII bob. Tibbiy yo'sindagi majburlov choralarining
asoslari va ularni tayinlash***

1-masala. Giyohvandlik kasaliga chalingan fuqaro R. muqaddam giyohvandlik jinoyatini sodir etib sudlangan fuqaro B.dan giyohvandlik moddasini sotib olayotganda qo'lga olindi. Sud jazo tayinlashda unga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov chorasini qo'llamasdan jazo tayinladi.

– Sudning hukmi asoslimi?

2-masala. O'zbekiston fuqarosi A. boshqaruvidagi «KamAZ» avtomashinasiga 176 dona Tyanshan qoraqarag'aylari yuklangan bo'lib, qoidabuzar bu yukni O'zbekistonga olib o'tmoqchi bo'lganda bojxona xodimlari tomonidan ushlangan.

– JKning tegishli normalari asosida holatga huquqiy baho bering.

3-masala. «Matiz» rusumli avtomashina haydovchisi fuqaro R. yo'lovchi fuqaro A.ga pichoq o'qtalib, uning uyali telefoni hamda 345 ming so'm pulini tortib olgan va mashinadan tushirib, voqea joyidan yashiringan.

– Ushbu holatga huquqiy baho bering.

4-masala. Zaharvandlik kasalligiga yo'liqqan N. fuqaro D. xonadonidan 5 mln. so'm pul, 600 AQSH dollari va ikki turdagi zargarlik buyumlarini zo'rlik ishlatib olib ketgan.

– JKning tibbiy yo'sindagi majburlov choralarining asoslari va ularni tayinlashga doir normalar tahlili asosida holatga huquqiy baho bering.

5-masala. «Toshkent – Moskva» yo'lovchi poyezdida ketayotgan giyohvandlik kasalligiga yo'liqqan S. xolislari ishtirokida shaxsiy ko'rikdan o'tkazilganda, kiyimlari ostidan 12 ming AQSH dollari hamda 20 ming Rossiya rublini beliga bog'lab olgani aniqlandi.

– JKning tegishli normalari asosida holatga huquqiy baho bering.

6-masala. 1994-yilda tug'ilgan giyohvandlik kasalligiga yo'liqqan D. ismli fuqaro tog'asi fuqaro N.ning uyida o'zaro janjal natijasida uni o'ldirib qo'yadi va jinoyatni yashirish maqsadida N.ni ustiga ko'rpa yopib uyni yoqib yuboradi.

– Jazo tayinlashga doir normalar tahlili asosida holatga huquqiy baho bering.

7-masala. Toshkentda xonadon «sotuvchi» firibgarlar guruhi qo‘lga olindi.

Viloyatdan Toshkentga kelgan er-xotin D. va R. poytaxtda o‘g‘li uchun xonadon sotib olishni istaydi. Ular tanishlaridan biri orqali muammoni hal qilishda ko‘mak beruvchi ayol bilan tanishadi va ikki o‘rtada davlat foydasiga musodara qilingan xonadonni bozor narxidan arzonroqqa xarid qilish mumkinligi borasida suhbat bo‘lib o‘tadi.

O‘zini «mansabdor shaxsning qizi» deb tanishtirgan giyohvandlik kasalligiga yo‘liqqan R. D.lar oilasi xonadonni rasmiylashtirish uchun avvaliga 2 ming AQSH dollari, xonadonning o‘g‘illari nomiga o‘tgani haqidagi hokimning buyrug‘ini qo‘lga olgach esa, 15 ming AQSH dollari beradi.

Yaxshi narxga poytaxtdan xonadon xarid qilganiga ishongan D.lar uy kalitini olish uchun shahar hokimiyatiga boradi. U yerda esa uy rasmiylashtirilgani to‘g‘risidagi hujjatning soxta ekani ma‘lum bo‘ladi.

Huquqni muhofaza qilish organlariga ariza bilan murojaat qilib, bo‘lgan voqeani aytib bergan D. ular mazkur guruh firibgarlariga aldangan uchinchi oila ekanidan xabar topdi.

Firibgarlar huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan hibsga olindi. Aniqlanishicha, ular «mijozlarga ishlov berish»ni birga tashkillashtirgan. Firibgarlar bir soatga qora «Mercedes 600» avtomobilini ijaraga olgan. Qo‘riqchi, mansabdor shaxsning qizi, mijoz topuvchi dallol, soxta hujjat tayyorlovchi shaxs singari rollar guruh a‘zolari o‘rtasida bo‘lishib olingan.

– Jazo tayinlashga doir normalar tahlili asosida holatga huquqiy baho bering.

8-masala. 2013-yilning mart oyida giyohvandlik kasalligiga yo‘liqqan fuqaro S. va O.lar tanishi muqaddam sudlangan fuqaro B.dan «geroin» topib berishini iltimos qilgan. B. «geroin»ni ularga yetkazib berish vaqtida qo‘lga olingan.

Sud Jinoyat kodeksining tegishli moddalari bilan aybdor deb topilgan S.ga 8 yil, O.ga 8 yilu 5 oy, B.ga 10 yilu 7 oy muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinladi.

– Sud tomonidan aybdorlarga nisbatan chiqarilgan jazo asosli tayinlanganmi?

9-masala. Giyohvandlik kasalligiga yo‘liqqan A. yo‘l chetida turgan avtomobil oynasini sindirgan va salondagi beshta plastik kartochka, mashina egasining fuqarolik pasporti, ikkita uyali aloqa vositasi, parfumeriya mahsuloti va 250 AQSH dollari miqdoridagi pulni o‘g‘irlagan.

– Ushbu holatga huquqiy baho bering.

10-masala. Bojxona xodimlari fuqaro X.ni xolislar ishtirokida shaxsiy ko‘rikdan o‘tkazganda, uning oyoq kiyimiga yashirilgan 73,47 gramm og‘irlikdagi tilla taqinchoqlarni hech qanday hujjatlarsiz, noqonuniy olib o‘tayotganligi aniqlandi.

– Jazo tayinlashga doir normalarning tahlili asosida holatga huquqiy baho bering.

MUNDARIJA

SO‘ZBOSHI	3
<i>Birinchi bo‘lim. UMUMIY QOIDALAR</i>	
<i>I bob.</i> Jinoyat kodeksining vazifalari va prinsiplari	4
<i>II bob.</i> Kodeksning amal qilish doirasi	4
<i>Ikkinchi bo‘lim. JAVOBGARLIK ASOSLARI</i>	
<i>III bob.</i> Jinoyat.....	7
<i>IV bob.</i> Javobgarlikka tortilishi lozim bo‘lgan shaxslar	9
<i>V bob.</i> Ayb.....	11
<i>VI bob.</i> Tamom bo‘lmagan jinoyat	13
<i>VII bob.</i> Jinoyatda ishtirokchilik	17
<i>VIII bob.</i> Bir qancha jinoyat sodir etish	19
<i>Uchinchi bo‘lim. QILMISHNING JINOIYLIGINI ISTISNO QILADIGAN HOLATLAR</i>	
<i>IX bob.</i> Qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar tushunchasi va turlari	22
<i>To‘rtinchi bo‘lim. JAZO VA UNI TAYINLASH</i>	
<i>X bob.</i> «Jazo» tushunchasi, maqsadlari va turlari	26
<i>XI bob.</i> Jazo tayinlash.....	28
<i>Beshinchi bo‘lim. JAVOBGARLIKDAN VA JAZODAN OZOD QILISH</i>	
<i>XII bob.</i> Javobgarlikdan ozod qilishning turlari.....	32
<i>XIII bob.</i> Jazodan ozod qilishning turlari.....	35
<i>XIV bob.</i> Sudlanganlik.....	36
<i>Oltinchi bo‘lim. VOYAGA YETMAGANLAR JAVOBGARLIGINING XUSUSIYATLARI</i>	
<i>XV bob.</i> Jazo va uni tayinlash.....	39
<i>XVI bob.</i> Javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilish.....	40
<i>Yettinchi bo‘lim. TIBBIY YO‘SINDAGI MAJBURLOV CHORALARI</i>	
<i>XVII bob.</i> Tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarining asoslari va ularni tayinlash	42

JINOYAT HUQUQINING UMUMIY QISMIDAN AMALIY MASALALAR

O'quv qo'llanma

Muharrir B. Q. Ergashev
Texnik muharrir D. R. Djalilov

Bosishga 23. 02. 2015-yil ruxsat etildi. Nashriyot hisob tabag'i 2,8.
Adadi 50 nusxa. Buyurtma.

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi,
100197, Toshkent sh., Intizor ko'chasi, 68